

CROSSREF DOI:- 10.37547/gbps-08
DATE:- 31-12-2022



2022

**ISSUES OF IMPROVING THE ORGANIZATION OF
ACCOUNTING AND AUDITING IN INSURANCE
ORGANIZATIONS**

ISBN 978-1-957653-10-5

Kunduzova K.I., Khojaev A.S.

Kunduzova K.I., Khojaev A.S.

**ISSUES OF IMPROVING THE
ORGANIZATION OF ACCOUNTING AND
AUDITING IN INSURANCE
ORGANIZATIONS**

(M o n o g r a p h)

2022

UDC: 368:657(075.8).

LBC: 65.271.

Kunduzova Kumrikan Ibragimovna (Candidate of Economics, Docent, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan); Khojaev Azizkhon Saidalokhonovich (PhD in Economics, Docent, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan), "Issues of improving the organization of accounting and auditing in insurance organizations" (monograph). Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022, 108 p.

Responsible editor:

D.Q. Kudbiyev, Doctor of Economic Sciences, Professor

Reviewers:

I.N. Ismanov, Doctor of Economic Sciences, Professor, Head of the department of Accounting and Audit, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan;

A. Tashtemirov, Chief accountant of Toshloq district branch of "Uzarosugurta" JSC.

The work of the monograph describes the specific features of the organization of accounting and auditing in insurance organizations. The existing problems in the organization of accounting of these organizations were theoretically studied, and recommendations and proposals were developed for their elimination. At the same time, an audit program and plan for organizing and conducting audits of insurance organizations has been developed.

This monograph work is intended for candidates conducting scientific research, professors and teachers of higher education institutions, graduate students. It can be used as a scientific-methodical and practical guide by managers of the accounting service of insurance organizations, auditors and all specialists interested in the field.

The monograph was approved for publication by the Scientific Council of the Fergana Polytechnic Institute. Protocol No. 10 of "30" "July" 2022.

ISBN: 978-1-957653-10-5

Crossref doi: 10.37547/gbps-08

© K. Kunduzova,

© A. Khojayev.

© 2022

Кундузова К.И., Хожаев А.С.

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО
УЧЕТА И АУДИТА В СТРАХОВЫХ
ОРГАНИЗАЦИЯХ**

(монография)

2022

УДК: 368:657(075.8).
ББК 65.271.

Кундузова Кумрихан Ибрагимовна (кандидат экономических наук, доцент, Ферганский политехнический институт, г. Фергана, Узбекистан); **Хожаев Азизхон Саидалохонович** (доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент, Ферганский политехнический институт, г. Фергана, Узбекистан), «Вопросы совершенствования организации бухгалтерского учета и аудита в страховых организациях» (монография). **Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022. 108 с.**

Ответственный редактор:

Д.К. Кудбиев, доктор экономических наук, профессор;

Рецензенты:

И.Н.Исманов, Ферганский политехнический институт заведующий кафедрой «Бухгалтерский учет и аудит», доктор экономических наук, профессор

Таштемиров А., главный бухгалтер Тошлокского районного филиала АО «Узаросугурта»

В работе монографии описаны особенности организации бухгалтерского учета и аудита в страховых организациях. Теоретически изучены существующие проблемы в организации бухгалтерского учета этих организаций и выработаны рекомендации и предложения по их устранению. При этом разработаны программа проверок и план организации и проведения проверок страховых организаций.

Настоящая монография предназначена для кандидатов, проводящих научные исследования, профессоров и преподавателей высших учебных заведений, аспирантов и студентов. Она может быть использована в качестве научно-методического и практического руководства руководителями бухгалтерской службы страховых организаций, аудиторами и всеми заинтересованными в данной области специалистами.

Монография утверждена к изданию Ученым Советом Ферганского политехнического института. Протокол №10 от «30» «июль» 2022 г.

ISBN: 978-1-957653-10-5

Crossref doi: 10.37547/gbps-08

© К. Кундузова,

© А. Ходжаев.

© 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

**SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA
BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDITINI
TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI
(MONOGRAFIYA)**

2022

UO‘K: 368:657(075.8).
KBT: 65.271

Kunduzova Kumrixon Ibragimovna (iqtisod fanlari nomzodi, Farg‘ona politexnika instituti dosenti, Farg‘ona, O‘zbekiston); **Xojayev Azizxon Saidaloxonovich** (iqtisod fanlari falsafasi doktori (PhD), Farg‘ona politexnika instituti dosenti, Farg‘ona, O‘zbekiston), “Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishni takomillashtirish masalalari” (monografiya). **Fergana-USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022, 108 b.**

Mas’ul muharrir:

D.Q.Qudbiyev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

I.N.Ismanov, Farg‘ona politexnika instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.Tashtemirov, “O‘zarosug‘urta” AJ Toshloq tumani bo‘limi bosh hisobchisi

Monografiya ishida sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ushbu tashkilotlarning buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi mavjud muammolar nazariy jihatdan tadqiq etilib, ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan. Shuning bilan birga sug‘urta tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilish hamda o‘tkazish bo‘yicha auditorlik dasturi va rejasi ishlab chiqilgan.

Ushbu monografiya ishi ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlunuvchilar, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, magistrantlar va talabalar uchun mo‘ljallangan. Undan ilmiy-uslubiy va amaliy qo‘llanma sifatida sug‘urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi xizmatining rahbarlari, auditorlar hamda soha bilan qiziquvchi barcha mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

Monografiya ishi Farg‘ona politexnika instituti kengashida ko‘rib chiqilgan va chop etishga tavsiya qilingan. Bayon № 10, 30 iyul 2022 yil.

ISBN: 978-1-957653-10-5

Crossref doi: 10.37547/gbps-08

© **K.Kunduzova**

© **A.Xojayev.**

© **2022 yil**

MUNDARIJA

KIRISH.....	8
I-BOB. SUG‘URTA MUNOSABATLARI TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA VA UNING IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDAGI AHAMIYATI	13
1.1. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi sug‘urta munosabatlari va ularning vujudga kelishi shartlari	13
1.2. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatining tashkil etilishi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	23
1.3. Sug‘urta tashkilotlari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartibining zarurligi.....	33
II-BOB. SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	36
2.1. Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning umumiy qoidalar va schyotlar rejasining farqli jihatlari	36
2.2. Sug‘urta ishini yuritish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar	44
2.3. Sug‘urta tashkilotlari sug‘urta mukofatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.....	47
2.4. Sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta qoplamalari to‘lashni hisobga olishning o‘ziga xos jixatlari	59
2.5. Sug‘urta tashkilotlarida sug‘urta faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks etirish.....	74
III-BOB. SUG‘URTA TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING TAKOMILLASHTIRISH MASALARI	83
3.1. “Sug‘urta tashkilotlarda buxgalteriya hisobni tashkil etishning takomillashtirish	83
3.2. Sug‘urta tashkilotlarida audit: o‘ziga xos jihatlari, mavjud muammolari va ularning yechimlari	86
XULOSA VA TAKLIFLAR	97
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	100

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi kunga kelib bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari to'liq amal qila boshladi. Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashini va uning rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri uning infratuzilmasi shakllanganligi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sug'urta sohasi hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urta sohasi iqtisodiyot rivojlanishining bir maromda borishini ta'minlovchi sohalardan biridir. Bundan tashqari, sug'urta iqtisodiyotning rivojlanishi uchun salmoqli investitsiya kapitalini jamlashtiruvchi va iqtisodiyotga kirituvchi strategik ahamiyatga ega bo'g'inlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat moliya bozorida sug'urta tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon moliya tizimida sug'urta kompaniyalari buxgalteriya hisobi va auditini o'tkazish, ularni kelgusi ish faoliyatini prognozlash muhim fundamental ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, dunyoning har bir mamlakati sug'urta bozorida professional faoliyat ko'rsatadigan sug'urta tashkilotlari reytingini aniqlash hamda raqobatbardoshligiga real baho berishda foydalaniladi. Chunki global moliyaviy beqarorliklar va risklar sharoitida milliy va xalqaro sug'urta bozorlarida sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar buxgalteriya hisobi va auditini tashkil qilish va mavjud masalalarining aniq, tezkor va ishonchli yechimiga erishish ushbu bozorlarda faoliyat yurituvchi sug'urtalanuvchi, sug'urtalovchi, auditor, aktuariylar, reyting agentliklari, moliyaviy analitiklar, sug'urta regulyatorlari, investorlar, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan asosli va samarali risk-menejment, investitsion va boshqaruv qarorlar qabul qilishda doimo dolzarb muammolardan bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir. Biroq mamlakat moliya bozorida bu xizmatlarning

o'zni hozircha katta emas. Joriy yilning olti oyida sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofoti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobar oshgan bo'lsa-da, sug'urta tushumi aholi jon boshiga 50 ming so'mdan to'g'ri kelgan. Ushbu sohaning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 0,4 foizni tashkil etmoqda. Qiyos uchun, bu ko'rsatkich Janubiy Koreyada 11 foiz, Germaniyada 6 foiz, Rossiyada 1,5 foizni tashkil etadi. Buning asosiy sabablaridan biri — sug'urta xizmatlari yetarli darajada jozibador emasligi. Misol uchun, o'tgan olti oyda umumiy sug'urta tarmog'ida 887 milliard so'm sug'urta mukofoti yig'ilgan bo'lsa-da, ushbu davrda mijozlarga to'langan sug'urta qoplamasining hajmi mukofotning atigi 11 foiziga to'g'ri kelgan. Dunyoda esa bu ko'rsatkich o'rtacha 50-60 foizdir"¹ Shunday ekan ushbu sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «... sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlarning yangi shakllarini joriy qilish, sug'urta va boshqa turdagi moliyaviy xizmatlarning hajmini kengaytirish»² bilan bog'liq vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar samarali ijrosini ta'minlash maqsadida respublika hududlaridagi sug'urta tashkilotlari faoliyatini o'rganish, ularning hisob va audit ishlarini tashkil etish takomillashtirish bilan bog'liq hisoblanadi.

Sug'urta faoliyati iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish uchun sezilarli manbalarni shakllantirish, investitsiya xatarlarini yumshatish, tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilikning salbiy oqibatlarini kamaytirish yoki bartaraf etish imkonini beruvchi sug'urta zahiralari institutlari vositasida iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish jarayonlarining to'xtovsiz borishi uchun sharoitlar yaratadi.

Sug'urta qilishning aynan shu roli uni infratuzilmaning muhim sohasi sifatida olg'a suradi, nafaqat takror ishlab chiqarish jarayonini balki ayniqsa

¹ SH.M.Mirziyoev Sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Manbaa: <https://president.uz/uz/2703>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.

jahon iqtisodiyotidagi inqiroz davrida dolzarb bo'lgan tashqi va ichki savdo operatsiyalari jarayonlarini xatardan himoyalashni ta'minlaydi. Shularni e'tiborga olgan holda, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilgan institusional islohatlar jarayonida bozor iqtisodiyoti munosabatlari tamoyillariga mos sug'urtalash tizimi shakllandi. Nisbatan qisqa davrda iqtisodiyotning sug'urta sohasida faoliyat yuritishni tartibga solish va boshqarish uchun zarur bo'lgan qonunchilik asoslari hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar barpo etildi.

Sug'urta sohasini rivojlantirish zaruratini uning quyidagi xususiyatlarga egaligi bilan asoslash mumkin:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday munosabatlarda xavf-xatar, risk va qaltisliklarning mavjudligi;
- sug'urta kompaniyalari tomonidan favqulodda holat natijasida korxonaning faoliyati to'xtab qolmasligi va faoliyatini davom ettirishini ta'minlanishi;
- mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdordagi investitsiyalarni kiritishi;
- hayot sug'urtasi orqali aholining ijtimoiy himoyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ta'minlashi;
- mamlakat umumiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanishi va boshqalar.

Bugungi kunga kelib, mazkur sohaning samarali faoliyatini ta'minlashda, ushbu soha uchun hisoblar tizimining joriy etilganligi katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda 2008-yilning 1-iyunidan boshlab, 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan "Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi" kuchga kirdi. Ushbu schyotlar rejasi mamlakatimizdagi sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta hisobini yuritish tartiblarini belgilab beradi. Mazkur tadqiqot ishida yuqorida tilga olingan schyotlar rejasi asosida sug'urta tashkilotlariga xos bo'lgan alohida operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya

hisobini yuritish va operatsiyalarni hisobga olish jihatlari yoritilgan. Aytish joizki, bugungi kunda sug'urta bozorini rivojlantirishda sug'urta tashkilotlarida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi va xisobotlarini yuritishni tug'ri tashkil etilishi va uni takomillashtirish masalalari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi: O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishda buxgalteriya hisobining o'rnini va ahamiyatini o'rgangan holda, sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning obyekti sifatida "Universal sug'urta" Farg'ona viloyati filiali Qo'qon bo'limi

Ishning predmeti bo'lib "Universal sug'urta" Farg'ona viloyati filiali Qo'qon bo'limi buxgalteriya xisobini va auditni tashkil etishning o'ziga xos tomonlari va uni takomillashtirishni amaliy jihatlarni yoritish hisoblanadi.

Tadqiqot ishini tayyorlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Farmonlari, ma'ruza va risolalaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli davlat organlarining huquqiy-meyoriy hujjatlaridan hamda O'zbekiston Respublikasi statistika Qo'mitasi va internet ma'lumotlaridan, shuningdek, darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot ishining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, asarlari va ko'rsatmalari hisoblanadi. Bundan tashqari ilmiy ishda O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Nizomlari va yo'riqnomalari, shuningdek, mamalakatimiz yetakchi olimlari va mutaxassislarining ushbu muammoga oid ilmiy-tadqiqot natijalari hisoblanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya xisobini nazariy va amaliy holatini aniq o'rganish;

- buxgalteriya hisobini tashkil qilish jarayonida sug'urta tashkilotlarining xususiyatlaridan kelib chiqib tavsiyalar ishlab chiqish;
- buxgalteriya hisobini yaxshilash maqsadida buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan shaklini qo'llashga oid tavsiyalar berish.

Tadqiqot ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar qismlarini o'z ichiga oladi.

Birinchi bobda sug'urta munosabatlari to'g'risida umumiy tushuncha va uning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi ahamiyati to'g'risida, ikkinchi bobda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uziga xos jixatlari va sug'urta tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning boshqa xo'jalik subyektlarining buxgalteriya hisobidan farqli jihatlari yoritilgan.

Uchinchi bobda esa sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini va auditni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Xulosa va takliflar qismida tadqiqot ishining mazmunidan kelib chiqib, nazariy va amaliy jihatda asosli bo'lgan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi va boshqa masalalarning mavjud ekanlari sug'urta tashkilotlari faoliyatida buxgalteriya hisobi va auditni yuritish, ular uslubiyotini yana bir bor o'rganishni zaruriyatga aylantirdi.

I-BOB. SUG‘URTA MUNOSABATLARI TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA VA UNING IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDAGI AHAMIYATI

1.1. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi sug‘urta munosabatlari va ularning vujudga kelishi shartlari

Bugungi kunda sir emaski, uzoq asrlar davomida odamlar doimo tabiiy xavflarga duch kelib yashab kelmoqdalar. Shunga qaramay insonlar jamiyati mazkur xavflar oldida ojiz qolmaslikka harakat qilib, tabiiy xavflar bilan kurashib kelmoqda.

Uzoq yillik amaliyot natijasida insoniyat tomonidan taqdir zarbalariga qarshi turishning quyidagi shakllari ishlab chiqildi:

- mavjud xavfning oldini olish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirib, xavfni bartaraf etish;
- sodir bo‘lgan ofat bilan kurashish, uning keng tarqalmasligini oldini olish va tezroq bartaraf etish;
- sodir bo‘lgan hodisalar oqibatida yetgan zararlarni qoplash.

Baxtsiz hodisalarning oqibatlari bilan kurashish sug‘urtaning asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. Insonlar baxtsiz hodisalarning oqibatlari bilan kurashish mumkinligini, tabiiy jarayonlarning qonuniyatlarini asta-sekinlik bilan tushuna boshlaganlaridan so‘ng angladilar. Lekin, afsuski, barcha favqulodda hodisalarning amaliyotda oldini olishning yoki bartaraf etishning imkoni yo‘q. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, tasodifiy hodisalar oqibatida yetgan zararlarni sug‘urta yo‘li bilan qoplash har doim qulay va rejali tartibda amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun sug‘urta bugungi kunda har bir oila, har bir tashkilot, tadbirkor, korxona va davlat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

Har bir inson shuni bilishi kerakki, u o‘z mulkiga ega bo‘lishi bilan uni yo‘qotish bilan bog‘liq riskka yuz tutadi. Yong‘in, suv toshqini, bo‘ron yoki boshqa shunga o‘xshash hodisa oqibatida mulk egasi mulkidan mahrum bo‘lishi mumkin. Mazkur hodisa natijasida mulkning yo‘qotilishi natijasidagi zarar faqatgina uning

egasi zimmasiga tushadi. Shuning uchun mulk egasi o'z mulkini saqlash uchun ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur hisoblanadi.

Bunda yana bir jihatni hisobga olishimiz zarur, mulk egasi o'z faoliyati davomida boshqa shaxslarning mulkiga ham zarar yetkazishi va natijada ushbu zararni qoplash bo'yicha javobgar bo'lishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari inson o'z hayoti bilan bog'liq hodisalarni ham hisobga olish zarur.

Sug'urtaga bo'lgan obektiv talabni vujudga keltiruvchi asosiy omil bu, tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararni biror bir javobgarning zimmasiga yuklashning imkoniyati yo'q. Ikkinchi omil esa sug'urta shartnomasida nazarda tutilayotgan risklar yuz berganda biror korxona yoki tashkilot yetgan zararni o'z mablag'lari hisobidan qoplay olmasligi mumkin. Mazkur muammoni hal etishda korxonaga sug'urta kompaniyasi yordam beradi.

Ma'lumki, talab taklifni keltirib chiqaradi. Dengiz kemachiligi rivojlana boshlagan davrda kema egalari dengizdagi tabiiy ofatlar va dengiz qaroqchiligi oqibatida o'z mulklarini yo'qotish xavfiga duch kelganlar. Kema dengizga chiqqandan so'ng bo'ron, dovul yoki shunga o'xshash hodisalar oqibatida kema va undagi yuklarning zararlanishi yoki nobud bo'lishi mumkin bo'lgan. Shuni hisobga olgan holda, kema egalari umumiy g'aznalarni tashkil eta boshlaganlar. Mazkur g'aznalarga badal to'lagan shaxs zarar ko'rgan taqdirda, to'lagan badalining ulushiga proporsional tarzda zararining bir qismi g'azna hisobidan qoplab berilgan. G'aznalarni tashkil etish baxtsiz hodisalarning yuz berish ehtimolini o'rganish va g'aznani talab darajasida to'ldirish maqsadida yetarli ishtirokchilarni shakllantirish maqsadida amalga oshirildi. Shunday qilib, o'zaro sug'urtalash tizimi vujudga kela boshladi. Bizga ma'lum bo'lgan birinchi sug'urta shartnomasi 1347-yilda Genuyada tuzilgan. Ushbu shartnomada bir shaxs ikkinchi shaxs dengizga chiqishidan oldin uning kemasi va undagi yuklarini dovul va qaroqchilarning ta'siri natijasida nobud bo'lishidan sug'urtalagan.

Sug'urta munosabatlarining rivojlanishi bilan ular nafaqat mulkning zararlanishi yoki nobud bo'lishi holatlarini, balki uchinchi shaxsning mol-

mulkiga zarar yetkazish yoki nobud qilish holatlarini ham qamrab ola boshladi. Demak, mulkiy sug'urta bilan birga uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligini sug'urtalash turi ham vujudga keldi.

Fuqarolik javobgarligini sug'urtalashning ahamiyatiga doir bir misol keltiramiz. Bir sug'urta tashkilotining vakilining ta'kidlashicha, avtomobil haydovchisi o'z avtomobilini boshqaruvini yo'qotib, uchta avtomobilning to'qnashishiga sabab bo'lgan. Albatta, ba'zi shaxslar to'qnashuv oqibatida tan jarohatlarini ham olganlar. Jabrlanuvchi shaxslar o'zlariga yetkazilgan zararni qoplash uchun sudga da'vo kiritganlar. Lekin avtomobil haydovchisi o'z avtomobili va fuqarolik javobgarligini sug'urtalab qo'yganligi sababli, zararni sug'urta kompaniyasi tomonidan to'lab berilishi ta'minlanadi va jabrlanuvchilar o'z da'volarini suddan qaytarib oladilar. Ko'rinib turibdiki, sug'urtalash mexanizmining ishlashi natijasida bir shaxs sudlanishdan qutqarib qolindi.

Sug'urta munosabatlarining yana bir yo'nalishi bu inson hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq holatlarni sug'urtalash hisoblanadi. Hozirda inson sog'lig'ining buzilishi kabi holatlar tibbiy sug'urta shartnomalari asosida sug'urtalanadi. Lekin tibbiy sug'urta vujudga kelmasdan oldin bu sug'urta turlari hayot sug'urtasi sohasida qo'llanilgan. Hayot sug'urtasi shartnomasini tuzishning asosiy maqsadi bu sug'urtalanuvchining merosxo'rlarini u vafot etgan taqdirda moddiy himoyalash hisoblangan. Bizgacha yetib kelgan birinchi yozma shakldagi hayot sug'urtasi shartnomasi Angliyada XVI asrda tuzilgan. Undan ham oldin Qadimgi Rimda kollegiyalar tuzilib, ularning vazifalaridan biri kollegiya a'zosi vafot etgan taqdirda, uning oila a'zolariga dafn marosimlarini qoplash uchun ma'lum belgilangan summalar to'langan. Mazkur xarajatlarni qoplash uchun fond a'zolikka qabul qilish badallari hisobiga shakllangan. Mazkur tizim hozirgi kundagi dafn marosimi sug'urtasining tizimi bilan bir xil bo'lib, u har qanday sababga ko'ra sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda sug'urta summasi to'lab berilishini nazarda tutadi.

Keyinchalik esa sugʻurta tashkilotlari sugʻurtalanuvchi maʼlum yoshgacha yashagan taqdirda sugʻurta qoplamasini toʻlashni nazarda tutuvchi sugʻurta turlarini taklif eta boshladilar. Natijada jamgʻarish xarakteriga ega sugʻurta turlari paydo boʻla boshladi. Jamgʻarish xarakteriga ega sugʻurta turlarining oʻziga xos xususiyati shundaki, bunda sugʻurtalanuvchi shartnomada belgilangan tartibda sugʻurta badalini toʻlab boradi. Sugʻurtalovchi toʻlangan badallarni shartnomada belgilangan muddatda toʻplab boradi. Sugʻurta hodisasi sifatida shartnomada belgilangan hodisa yoki shartnoma muddatining tugashi hisoblanadi. Agar shartnoma muddati tugamasdan avval sugʻurta hodisasi yuz bersa, shartnomada belgilangan sugʻurta summasi sugʻurtalanuvchiga toʻlab beriladi. Sugʻurta shartnomasining muddati tugagan taqdirda, sugʻurtalovchi tomonidan toʻplab borilgan sugʻurta badallari shartnomada belgilangan foiz ustamasi bilan sugʻurtalanuvchiga sugʻurta summasi sifatida toʻlab beriladi.

Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonun va Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining sugʻurtaga bagʻishlangan 52-bobi hisoblanadi.

Sugʻurta tushunchasiga “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunning 3-moddasida taʼrif berilib, unga koʻra “**Sugʻurta** deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar toʻlaydigan sugʻurta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea yuz berganda ushbu shaxslarga sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurta tovonini toʻlash yoʻli bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi”.

Sugʻurta munosabatlarida ikki tomon ishtirok etadi:

– **sugʻurta tashkiloti yoki sugʻurtalovchi** – sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurta tovonini toʻlovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Sugʻurtalovchi sugʻurta hodisalari yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni moliyalashtirishi mumkin;

– **sug‘urtalanuvchi** – sug‘urta tashkiloti bilan sug‘urta shartnomasini tuzgan yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urta tashkilotlari bilan munosabatlarga kirishgan yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanadi.

Sug‘urta obekti sug‘urtalanuvchining hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pensiya ta‘minoti, qo‘l ostidagi mol-mulkini tasarruf etish va boshqa shaxslarning unga yetkazgan zarari uchun javobgarlikni olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

Sug‘urtalanuvchi yuqorida ko‘rsatilgan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sug‘urta tashkiloti bilan sug‘urta shartnomasini tuzadi. Sug‘urta tashkiloti sug‘urtalanuvchining manfaatlarini himoya qilganligi evaziga shartnomaga muvofiq o‘z haqini, ya‘ni **sug‘urta mukofotini** undiradi. Sug‘urta mukofoti sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta hodisasining ehtimolligini hisobga olinib, statistik ma‘lumotlar, ehtimollik va katta sonlar qonuniyatlari asosida hisoblab chiqiladi.

Sug‘urta mukofotlari sug‘urtalanayotgan obektning summasiga nisbatan foizlarda hisoblab chiqilgan **sug‘urta tariflari** asosida aniqlanadi. Sug‘urta tariflarini hisoblash tartiblari, qoidalari va uslublarining yig‘indisi **aktuar hisob-kitoblar** deb nomlanadi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bir taraf boshqa taraf to‘laydigan, shartnomada shartlashilgan haq evaziga sug‘urta qildiruvchining yoxud shartnomada ko‘rsatilgan boshqa fuqaroning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to‘lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni bir yo‘la yoki vaqti-vaqti bilan to‘lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi kimning foydasini ko‘zlab tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs sug‘urta pulini olish huquqiga ega bo‘ladi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasiga muvofiq bir taraf shartnomada shartlashilgan haq evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea sodir bo‘lganda boshqa tarafga yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha

shaxsga bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa doirasida to'lash majburiyatini oladi.

Sug'urtalanuvchi yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa shaxslarning xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini keltirib chiqaruvchi xavflarni sug'urtalash sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasida shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining og'zaki yoki yozma arizasiga asosan yozma ravishda tuziladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urta obekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;
- yuz berishi ehtimol tutilib, sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi) ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta to'voni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi) ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;

- sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng sug‘urtalanuvchi shartnomada belgilangan muddatlarda sug‘urta mukofotini to‘lab borishga majbur hisoblanadi. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan taqdirda sug‘urta shartnomasi sug‘urta mukofoti yoki birinchi badal to‘langandan so‘ng kuchga kiradi.

Sug‘urta tashkilotlari sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘langan sug‘urta mukofoti evaziga sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug‘urta qoplamasini to‘lash majburiyatini qabul qiladi. Qabul qilingan sug‘urta majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlash uchun sug‘urtalovchilar ham so‘mda, ham chet el valutasida to‘langan sug‘urta mukofotlaridan sug‘urta zaxiralarini shakllantiradi hamda joylashtiradilar. Sug‘urta zaxiralarining mablag‘lari qat’iy maqsadlarda, ya’ni sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda, uning natijasida yetgan zararni qoplash uchun sarflanadi.

Sug‘urta zaxirasi sug‘urtalanuvchi bo‘lgan ko‘p sonli korxonalar, tadbirkorlar, yuridik va jismoniy shaxslarning to‘lagan sug‘urta mukofotlari evaziga shakllantiriladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, sug‘urta mukofotlari sug‘urta hodisalarining yuz berish ehtimoli inobatga olingan holda hisoblab chiqiladi. Demak, shakllantirilgan sug‘urta zaxirasi sug‘urtalovchining o‘z zimmasidagi javobgarlikka muvofiq bo‘lishi zarur.

Yuqorida ta’kidlanganidek, sug‘urta tashkilotlari sug‘urta zaxiralarini shakllantirish bilan birga ularni joylashtirishi, ya’ni investitsiya qilishi mumkin. Ma’lumki, sug‘urta shartnomasi bir yilgacha bo‘lgan muddatga yoki bir necha yilga tuziladi va shartnoma, odatda, sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng kuchga kiradi. Sug‘urta hodisasi sug‘urta mukofoti sug‘urta tashkilotiga kelib

tushgandan keyin ma'lum muddat o'tgandan so'ng yuz berishi yoki umuman yuz bermasligi mumkin. Sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar sug'urta mukofotlari sug'urta tashkilotining ixtiyorida bo'sh qoladi va sug'urta tashkiloti undan foyda olish maqsadida maxsus vakolatli organ belgilab bergan tartibda ularni investitsiya qiladi hamda daromad ko'radi. Investitsiya faoliyati ham sug'urta tashkilotining faoliyat turlaridan biri bo'lib, undan sug'urta tashkiloti salmoqli daromadga ega bo'ladi.


Ba'zi hollarda sug'urta tashkilotlari o'z zimmasiga olayotgan javobgarlikning hajmi ularning imkoniyatlaridan ortib ketishi mumkin. Bunday hollarda sug'urta tashkilotlari o'z mijozlarini ushlab qolish maqsadida javobgarlikni qabul qiladi va o'z imkoniyatidan ortiqcha javobgarlikni qayta sug'urtalash orqali boshqa sug'urta tashkilotiga shartnoma asosida o'tkazib yuborishi mumkin.

Qayta sug'urta (sessiya, risklar transformatsiyasi) – bu bir sug'urtalovchi tomonidan o'z zimmasiga olingan sug'urta javobgarligining bir qismini yoki to'liq shartnoma asosida boshqa sug'urta tashkilotiga o'tkazish hisoblanadi. Qayta sug'urtalashda sug'urta shartnomasi ikki sug'urta tashkiloti o'rtasida tuzilib, mazkur risk bo'yicha sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug'urta qoplamasining to'liq summasi sug'urtalanuvchi bilan shartnoma tuzgan sug'urta tashkiloti tomonidan to'lab beriladi. Sug'urta qoplamasining qayta sug'urtalovchiga tegishli qismi qayta sug'urtalanuvchiga o'tkazib beriladi. YA'ni sug'urtalanuvchi oldidagi barcha javobgarlikni asosiy sug'urta tashkiloti (qayta sug'urtalanuvchi) olib boradi.

Qayta sug'urtalash tartibining barcha shartlari sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Qayta sug'urtalanuvchi qayta sug'urta shartnomasining talablarini to'liq bajarib borgan taqdirda qayta sug'urtalovchi tomonidan unga **kommision to'lovlar** yoki **tantemalar** shaklidagi siylovlar beriladi. Qayta sug'urtalash sug'urta faoliyatida foydali mexanizm hisoblanib, undan foydalanib sug'urta tashkiloti o'z zimmasidagi ortiqcha majburiyatdan qutilish, shu bilan birga,

mijozni o'zida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, jahon sug'urta bozorida qayta sug'urtalash munosabatlari yuksak rivojlangan bo'lib, mamlakatlarning sug'urta bozoriga yetarli darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Qayta sug'urtalash munosabatlari sug'urta tashkilotlarning to'lov qobiliyatining barqarorligini ta'minlashda ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Qonunchilikka muvofiq qayta sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan majburiyatni boshqa sug'urta tashkilotiga qayta sug'urtaga berishi yoki o'tkazishi mumkin. Birlamchi qayta sug'urtalash sessiya deb nomlansa, ikkilamchi qayta sug'urtalash **retrotsessiya** deb nomlanadi (1-rasm).



1-rasm. Sug'urta bozorida risklar transferi, transformatsiyasi va retrotsessiya

Jamiyatda sug'urta munosabatlarining rivojlanishi bilan sug'urtalashni amalga oshirishning turli shakllari vujudga keldi va rivojlandi. Sug'urtalash shakllari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: birgalikda sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash, ko'p to-monlama va qisman sug'urtalash va boshqalar.

Birgalikda sug'urtalashda bir obekt biron riskdan bir nechta sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanishi mumkin. Bunda har bir sug'urtalovchi

o'z zimmasiga olgan majburiyat doirasida sug'urtalanuvchi oldida javobgarlikni olib boradi. Ba'zi bir yirik obektlarni sug'urtalashda bir sug'urta tashkilotining moliyaviy imkoniyati yetmasligi mumkin, shunda bir nechta sug'urta tashkilotlari birgalikda ushbu obektni sug'urtalashlari mumkin bo'ladi. Amaliyotda sug'urta tashkilotlari yirik obektlarni sug'urtalash uchun jamiyatlarni, ya'ni **sug'urta pullarini** tashkil etadilar. Sug'urta pullarining a'zolari o'z ulushi doirasida javobgarlikni olib borsa-da, ulardan bittasi sug'urtalanuvchi bilan munosabatlarni olib borishi ham mumkin. Mazkur sug'urtalovchi pul a'zolari tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanadi.

O'zaro sug'urtalash munosabatlari qadimdan rivojlanib, hozirgi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda. Qonunchilikka muvofiq o'zaro sug'urtalash ma'lum shaxslarning o'zaro sug'urtalash jamiyatlariga birlashishi orqali amalga oshiriladi. O'zaro sug'urtalash jamiyatlarining a'zolari o'rtasida shartnoma tuzilib, ularning turli manfaatlari sug'urtalanadi. Jamiyatning biror a'zosi sug'urta hodisasiga duch kelgan taqdirda, uning zarari jamiyatga kirish uchun to'langan a'zolik badallari evaziga shakllantirilgan fond evaziga qoplab beriladi. O'zaro sug'urtalash jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning notijorat faoliyat yuritishi hisoblanadi. YA'ni uning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki jamiyat a'zolariga turli hodisalar oqibatida yetkazilgan zararlarni bartaraf etishda ko'maklashish hisoblanadi.

Ko'p tomonlama sug'urtalash sug'urtalanuvchi bir obektni bir necha sug'urtalovchiga sug'urtalatgan taqdirda vujudga kelishi mumkin. Bir necha sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalangan obektga sug'urta hodisasi oqibatida zarar etgan taqdirda, sug'urtalanuvchi barcha sug'urtalovchilardan sug'urta qoplamasini talab qilishga haqli, lekin sug'urtalovchilar tomonidan to'langan sug'urta qoplamalarining summasi sug'urta zarari summasidan oshib ketmasligi zarur. Mazkur qoida faqatgina mulkiy sug'urta turlariga taalluqli bo'lib, hayot sug'urtasida mazkur qoida qo'llanilmaydi.

Sug'urta obektlarini **qisman sug'urtalash** ham amaliyotda uchrab turadi. Masalan, biror binoning 50 %i shikastlanishdan sug'urtalangan taqdirda, agar sug'urta shartnomasida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta hodisasi oqibatida binoga yetkazilgan zararining 50 %i sug'urtalovchi tomonidan qoplab berilishi mumkin.

1.2. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatining tashkil etilishi va o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, o'z iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida belgilab oldi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich o'tish yo'li tanlandi. Mazkur jarayonda iqtisodiyotning sohalarini erkinlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarishga katta e'tibor berildi. Shu o'rinda sug'urta sohasi ham bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining tarkibiy ajralmas qismi sifatida davlat monopoliyasidan chiqarildi va erkinlashtirildi. Hozirgi kunda sug'urta faoliyati mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biriga aylandi. O'zbekistonda sug'urta faoliyatining jadal rivojlanish bosqichlari asosan 1997-yildan "O'zagrosug'urta" DASK, "O'zbekinvest" EIMSK, "Kafolat" DASK kabi yirik sug'urta kompaniyalarining tashkil etilishi bilan boshlandi. 1998-yil 8-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan Moliya vazirligi huzurida Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi. Mazkur inspeksiyaning tashkil etilishi O'zbekiston sug'urta bozorining tartibga solinishiga va sug'urtalanuvchilar manfaatlarini davlat tomonidan himoyalash mexanizmining vujudga kelishiga olib keldi.

2002-yil 5-aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini yangi rivojlanish

bosqichiga olib chiqdi. Mazkur Qonunga asosan mamlakatimizda sug'urta sohasi ikki tarmoqqa ajratildi. Bular umumiy sug'urta va hayot sug'urtasi tarmoqlaridir.

Umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyasi uchun hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yuritishi taqiqlandi va aksincha, hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tarmog'idagi sug'urta kompaniyasining umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yuritishi taqiqlandi.

Sug'urta tashkiloti u yoki bu tarmoqda faoliyat yuritishi uchun maxsus vakolatli davlat organidan berilgan litsenziyaga ega bo'lishi zarur. Hozirda O'zbekistonda maxsus vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoblanadi. Bundan tashqari, Moliya vazirligi sug'urta tashkilotlarini nazorat qilish ishlarini ham amalga oshiradi.

Ushbu Qonunda sug'urta faoliyatining professional ishtirokchilari ham belgilanib, ular sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari va boshqa sug'urta bozorida ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Sug'urta vositachilari sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti hisoblanadi. Bulardan sug'urtalovchi va sug'urta brokerlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

Ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'isida"gi PQ-618-sonli Qarori asosida sug'urta bozorining yangi professional ishtirokchilarining qonuniy bazasi shakllantirildi. Bularga ajaster, syurveyer, aktuariy va assistanslarni misol qilib keltirish mumkin.

Adjaster yoki adjaster tashkiloti – bu sug'urtalovchining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatadigan tegishli ravishda jismoniy yoki yuridik shaxs:

- sug'urta hodisasi yuz bergandan keyin sug'urta obektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- sug'urta hodisasining holatlari va risk majburiyatlarini tahlil qilish;

- sug'urta obekti shikastlanishi sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;
- sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda sug'urta hodisasi oqibatida paydo bo'lgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini aniqlash;
- sug'urtalovchining majburiyatlaridan kelib chiqib to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovi summasini aniqlash;
- sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha ekspert xulosasi tuzish.

Aktuariy yoki aktuar tashkilot – bu tegishli ravishda quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlar ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs:

- sug'urta hodisasi yuz berishining matematik jihatdan muqarrarliligi hisobini amalga oshirish, ham alohida risk guruhlarida, ham umuman jami sug'urta bo'yicha zarar yetkazish oqibatlari og'irligi chastotalari va darajasini aniqlash;
- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik asoslash va hisoblash, ularni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;
- sug'urtalovchi tomonidan investitsiyalar sifatida yig'ilgan badallardan foydalanishda kapital qo'yish normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash, bu tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadi;
- sug'urtalash jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisoblash;
- sug'urtalashning (qayta sug'urtalashning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xarakterini hisobga olgan holda belgilash;
- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisoblashdan foydalangan holda baholash;

- sug'urtalovchining daromadlarini sug'urtalashning har xil turlari bo'yicha rejalashtirish.

Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalash shartnomasi doirasida sug'urtalanuvchilarga hamda sug'urtalovchilarga texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadilar, shuningdek, ularga moliyaviy yordam ko'rsatadilar.

Sug'urta syurveyeri – quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs:

- sug'urta shartnomasi tuzilgungacha sug'urta obektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- barcha faktlarni va risk holatlarini tahlil qilish, sug'urta shartnomasi tuzilgungacha risk darajasini aniqlash;
- sug'urtalashning tekshirilayotgan obekti bo'yicha ekspert xulosasi tuzish.

Mamlakatimizda faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishi va sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini himoyalash maqsadida eng kam ustav kapitali miqdorlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-872-sonli Qarori asosida 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab quyidagi sohalarida faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilandi³:

- umumiy sug'urta sohasida – 750 ming yevroga ekvivalent summada;
- hayotni sug'urta qilish sohasida – 1000 ming yevroga ekvivalent summada;

³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008-йил, 20-21-сон, 172-модда.

– majburiy sugʻurta boʻyicha – 1500 ming yevroga ekvivalent summada;

– faqat qayta sugʻurta qilish boʻyicha – 4000 ming yevroga ekvivalent summada.

Umumiy sugʻurta tarmogʻida faoliyat yurituvchi sugʻurta tashkilotlari quyidagi turlar boʻyicha litsenziya olishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Umumiy sugʻurta tarmogʻi boʻyicha sugʻurta turlari

T ur t/r	Turning nomi	Mazmuni va sugʻurta qilish shartlari boʻyicha talablar
1- tur	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sugʻurta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sogʻliqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yoʻqotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-tur va 4 tur boʻyicha sugʻurta shartnomalarini istisno qilgan holda, sugʻurta qilingan shaxsga sugʻurta taʼminotining belgilab qoʻyilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurta turlari jami
2- tur	Kasallikda n ehtiyot shart sugʻurta qilish	Sugʻurta taʼminotining belgilab qoʻyilgan pul summasi toʻlanishini yoki kasallik yoki sogʻliqning izdan chiqishi munosabati bilan sugʻurta

		qildiruvchining pul kompensatsiyasini ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining 4 turi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-tur	Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
3-tur	Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-tur	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
5-tur	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-tur	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

7-tur	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-tur	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yerosti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- turlarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-tur	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-turda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7- turlarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-tur	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqi-batida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-tur	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

12 -tur	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13 -tur	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-turlarda ko'rsatilmagan risklar oqibatida uchinchi shaxslar oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14 -tur	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15 -tur	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16 -tur	Boshqa moliyaviy risklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17- turda ko'rsatilgandan tashqari);

		v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
17 -tur	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajat larni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

Hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari quyidagi keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha litsenziya olishlari mumkin (2-jadval).

2-jadval

Hayot sug'urtasi tarmog'i bo'yicha sug'urta turlari

Tur tartib raqami	Turning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1 tur	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summolari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: – sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; – sug'urta qilinuvchining vafot etishi;

		shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar, 3 tur bundan mustasno
2 tur	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
3 tur	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birga, hayotni sug'urta qilish turlari jami
4 tur	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas

Hozirgi kunda sug'urta tashkilotlari litsenziyada ko'rsatilgan sug'urta turlari doirasida o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

1.3. Sug'urta tashkilotlari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartibining zarurligi

Sug'urta faoliyati sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy xizmat turlaridan biri hisoblanadi. Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayonining bir qancha o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular tovar ishlab chiqarish va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish jarayonlaridan keskin farq qiladi.

Sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchilardan kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan sug'urta zararlarini qoplash zaxirasini tashkil etadilar. Mazkur zaxira sug'urta muddati tugamagunga qadar sug'urtalovchining majburiyati hisoblanadi. Sug'urta muddati tugaganidan so'nggina ushbu mablag'lar sug'urta tashkilotining daromadi sifatida hisobga olinishi mumkin. Ba'zi hollarda sug'urta zaxirasidagi mablag'lar kunma-kun shartnoma muddatining o'tgan muddatiga nisbatan proporsional ravishda hisobga olib boriladi.

Bundan tashqari, sug'urta tashkilotlari o'z zimmasidagi majburiyatlarni ma'lum haq evaziga boshqa sug'urta tashkilotlariga o'tkazishi yoki ulardan qabul qilib olishi mumkin. Sug'urta tashkilotlari o'z zimmasidagi majburiyatlarni boshqa sug'urta tashkilotlariga o'tkazib yuborgan taqdirda ham sug'urtalanuvchilarning oldida javobgar bo'lib qolaveradilar.

Ma'lumki, sug'urta tashkilotiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi sug'urta muddati davomida bo'sh qolishi mumkin. Sug'urta tashkiloti ushbu mablag'larni bo'sh qolgan muddatga investitsiya obektlariga joylashtirishi va qo'shimcha daromad ham olishi mumkin. Hozirgi kunda jahon amaliyotida sug'urta kompaniyalari iqtisodiyotga investitsiyalarni kirituvchi yirik institusional investorlarga aylangan.

Yuqoridagi keltirilgan barcha xususiyatlar, sug'urta tashkilotlari uchun sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ishlab chiqishni talab etadi va bu tartib mamlakatimizda 2008-yilning 1-iyunidan boshlab, 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan "Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi" asosida kuchga kirdi.

Sug'urta tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobi umumiy tartib-qoidalarga asoslanib, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari singari buxgalteriya hisobi subektlari hisoblanadi.

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari esa buxgalteriya hisobining obektlaridir.

Barcha tashkilotlardagi singari sug'urta tashkilotida ham buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlash hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'isidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Buxgalteriya hisobining yuqoridagi vazifalari quyidagi asosiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;
- uzluksizlik;
- xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi;
- aniqlik;
- hisoblash;
- oldindan ko'ra bilish (yehtiyotkorlik);

- mazmunning shakldan ustunligi;
- ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
- moliyaviy hisobotning betarafligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi. O‘zbekistonda xo‘jalik yurituvchi subektlar tomonidan mulkchilik shaklidan qat’i nazar barchasi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-son milliy standarti asosida faoliyat yuritishi shart. Byudjet muassasalari, sug‘urta tashkilotlari va banklar bundan mustasno. Ma’lumki, banklar va byudjet muassasalari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartiblari ishlab chiqilgan. Sug‘urta tashkilotlari uchun mazkur tartib 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan “Sug‘urtalovchilar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi” asosida o‘rnatib berilgan.

II-BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

2.1. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning umumiy qoidalari va schyotlar rejasining farqli jihatlari

Sug'urta tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobi umumiy tartib-qoidalariga asoslanib, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari singari buxgalteriya hisobi subyektlari hisoblanadi.

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari esa buxgalteriya hisobining obektlaridir.

Barcha tashkilotlardagi singari sug'urta tashkilotida ham buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlash hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'isidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Buxgalteriya hisobining yuqoridagi vazifalari quyidagi asosiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;
- uzluksizlik;
- xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi;

- aniqlik;
- hisoblash;
- oldindan ko‘ra bilish (yehtiyotkorlik);
- mazmunning shakldan ustunligi;
- ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
- moliyaviy hisobotning betarafligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi. O‘zbekistonda xo‘jalik yurituvchi subektlar tomonidan mulkchilik shaklidan qat’i nazar barchasi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-son milliy standarti asosida faoliyat yuritishi shart. Byudjet muassasalari, sug‘urta tashkilotlari va banklar bundan mustasno. Ma’lumki, banklar va byudjet muassasalari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartiblari ishlab chiqilgan. Sug‘urta tashkilotlari uchun mazkur tartib 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan “Sug‘urtalovchilar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi” asosida o‘rnatib berilgan. Ushbu schyotlar rejasida sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Quyida sug‘urta tashkilotlari uchun belgilangan schyotlar rejasi va umumiy schyotlar rejasi o‘rtasidagi farqli jihatlarini ko‘rsatib berish uchun solishtirma jadval keltirilgan.

3-jadval. Umumiy schyotlar rejasi va sug‘urta tashkilotlari uchun belgilangan schyotlar rejasi o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha solishtirma jadval

№	Xo‘jalik subektlarining schyot rejasi	Schyot raqami	Sug‘urtalovchilar schyot rejasi
1	Ishchi va mahsuldor hayvonlar	0170	Ishchi hayvonlar
2	Sotib olingan yarim	1020	Butlovchi buyumlar

	tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar		
3	O'stirishdagi hayvonlar	1110	
4	Bo'rdoqidagi hayvonlar	1120	
5	Asosiy ishlab chiqarish	2010	Sug'urta ishini yuritish xarajatlari
6	O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar	2110	
7		2210	Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari
8		2220	Muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta tovonlari
9		2230	Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta tovonlari
10		2410	Qayta sug'urta qilishga oid komis-sion va brokerlik rag'batlantirishlar, tantemalar va yig'implarni to'lash bo'yicha xarajatlar
11	Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar	2610	
12	Ombordagi tayyor mahsulotlar	2810	
13	Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar	2820	
14	Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar	2830	
15		4030	Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar
16		4040	Sug'urta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar
17		4050	Qayta sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar
18		4051	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tantemalar va yig'implar bo'yicha olinadigan schyotlar
19		4060	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar
20		4070	Hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan ssudalar bo'yicha olinadigan schyotlar
21		4080	Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo zarari
22		4090	Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari
23	Boshqa berilgan bo'naklar	4330	Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun berilgan bo'naklar
24		4340	Boshqa berilgan bo'naklar

25		6011	Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan schyotlar
26		6030	Berilgan veksellar
27		6040	Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar
28		6050	Sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan schyotlar
29		6060	Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar
30		6070	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar
31		6080	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar
32		6090	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirish, tantemalar va yig'imlar bo'yicha to'lanadigan schyotlar
33		6270	Qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari
34		6280	To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari
35	Boshqa olingan bo'naklar	6330	Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari
36		6390	Boshqa olingan bo'naklar
37		7011	Oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha pudratchilarga to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar
38		7030	Berilgan veksellar
39		7040	Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar
40		7050	Sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar
41		7060	Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar
42		7070	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar
43		7080	Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar
44		7090	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirish, tantemalar va yig'imlar bo'yicha to'lanadigan uzoq muddatli schyotlar
45		8010	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi
46		8020	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi
47		8030	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan

			zararlar zaxirasi
48		8040	Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi
49		8050	Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi
50		8060	Falokatlar zaxirasi
51		8070	Zararlilikning tebranishi zaxirasi
52		8090	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxira
53		8110	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
54		8120	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
55		8130	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
56		8140	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiradagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi
57	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar	9010	
58	Tovarlarni sotishdan daromadlar	9020	
59	Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar	9030	Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar
60	Sotilgan tovarlarning qaytishi	9040	Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari
61		9060	Sug'urta vositachisi xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar
62		9070	Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar
63		9080	Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tantemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlar
64		9090	Syurveyer va adjaster xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar
65	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi	9110	
66	Sotilgan tovarlarning tannarxi	9120	
67	Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi	9130	Ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi
68		9230	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o'zgarishining natijasi
69		9240	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi
70		9250	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi

71		9260	Falokatlar zaxirasi o'zgarishining natijasi
72		9270	Zararlilikning tebranishi zaxirasi o'zgarishining natijasi
73		9280	Hayot sug'urtasi zaxirasi o'zgarishining natijasi
74		9290	Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi o'zgarishining natijasi
75		9431	To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, o'tgan davrda xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari
76		9432	To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari

Yuqorida keltirilgan jadvalni tahlil qilib shuni ko'rish mumkinki, sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan buxgalteriya schyotlarida umuxo'jalik schyotlar bilan o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Barcha o'xshash schyotlarda operatsiyalar odatdagidek olib borilishini hisobga olib, sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan schyotlarga to'xtalib o'tamiz. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda asosan sug'urta faoliyatiga tegishli bo'lgan schyotlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish tartibini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblandik. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotlari uchun mo'ljallangan schyotlar rejasida bevosita mahsulot va tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq schyotlar chiqarilib, ularning o'rniga sug'urta faoliyatiga taalluqli schyotlar shartli ravishda kiritilgan.

Sug'urta faoliyatiga taalluqli schyotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ulardan biri bu – 6280 “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari” schyotidir. Ushbu schyotda sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta mukofotlari hisobga olinadi. Sug'urta mukofotlarining to'lanishi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti 6280 “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari” schyotining krediti bilan bog'langan holda rasmiylashtiriladi. Bundan tashqari, ushbu schyot quyidagi schyotlar bilan ham bog'lanishi mumkin:

- sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar (6030);
- to'lanadigan dividendlarni hisobga oluvchi schyotlar (6610);

– xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar (6710).

Sug'urta shartnomalari sug'urta tashkilotining o'zi yoki sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari tomonidan tuzilishi ham mumkin. Sug'urtalanuvchilar, sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari bilan bog'liq hisob-kitoblar 6040 schyot "Sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan schyotlar" va 4040 schyot "Sug'urta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar"da olib boriladi.

Sug'urta tashkiloti o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish maqsadida kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan shakllantirgan sug'urta zaxiralari quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

8010 schyot "Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi";

8020 schyot "Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi";

8030 schyot "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi";

8040 schyot "Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasi";

8050 schyot "Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi";

8060 schyot "Falokatlar zaxirasi";

8070 schyot "Zararlilikning tebranishi zaxirasi";

8090 schyot "Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxira";

To'g'ridan-to'g'ri sug'urta va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha hisoblangan sug'urta tovonlari to'g'risidagi axborotni jamlash quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

2210 "Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari";

2220 "Muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta tovonlari";

2230 "Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta tovonlari";

9431 schyot “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha o‘tgan davrlarda sodir bo‘lgan, o‘tgan davrda xabar qilingan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”;

9432 schyot “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha o‘tgan davrlarda sodir bo‘lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”.

Agar sug‘urta tashkiloti sug‘urta qoplamasini to‘lab bergandan so‘ng sug‘urta hodisasining sodir bo‘lishida aybdor bo‘lgan shaxsdan zararni undirib olish huquqiga ega bo‘lsa, bu bilan bog‘liq hisob-kitoblar 4860 schyot “Da‘volar bo‘yicha olinadigan schyotlar” da olib boriladi.

Sug‘urta tashkilotlari o‘z moliyaviy holatining barqarorligini ta’minlash maqsadida o‘z zimmasidagi javobgarlikni boshqa sug‘urta tashkilotlariga o‘tkazishlari ya’ni qayta sug‘urta qilishlari mumkin. Bunda sug‘urta tashkiloti qayta sug‘urtalayotgan sug‘urta tashkilotiga ma’lum miqdordagi to‘lovni amalga oshiradi. Qayta sug‘urtaga o‘tkazilgan risklar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari summalari 9040 schyot “Qayta sug‘urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo‘yicha to‘langan sug‘urta mukofotlari”da hisobga olib boriladi.

Sug‘urta qoplamasini to‘lash bo‘yicha zararning qayta sug‘urtalash bo‘yicha olingan ulushlarining hisobi 9070 schyot “Qayta sug‘urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo‘yicha zararlar ulushining qoplanishi bo‘yicha daromadlar”da yuritiladi.

Qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha qayta sug‘urtalanuvchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasidagi umumiy o‘zaro hisob-kitoblar quyidagi schyotlarda amalga oshirilib boriladi:

6050 schyot “Qayta sug‘urta qilish bo‘yicha olingan risklar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar”;

6060 schyot “Qayta sug‘urta qilishga berilgan risklar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar”;

6070 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha depo mukofotlar";

6080 schyot "Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirish, tantemalar va yig'imlar bo'yicha to'lanadigan schyotlar";

4050 schyot "Qayta sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar";

4051 schyot "Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tantemalar va yig'imlar bo'yicha olinadigan schyotlar";

4060 schyot "Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha olinadigan schyotlar";

4080 schyot "Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo zarari";

4090 schyot "Sug'urtalovchining boshqa sug'urtalovchilardagi depo mukofotlari".

Yuqorida ko'rilgan schyotlarning ayrimlari asosida olib boriladigan hisob-kitoblar xisobi bo'yicha bitiruv malakaviy ishimizning keyingi savollarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

2.2. Sug'urta ishini yuritish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar

Sug'urtalovchining asosiy faoliyati bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash 2010 "Sug'urta ishini yuritish xarajatlari" schyotida amalga oshiriladi.

2010 "Sug'urta ishini yuritish xarajatlari" schyotining debeti bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar, shuningdek yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy faoliyatni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bilvosita xarajatlar aks ettiriladi. Sug'urtalovchilarning asosiy faoliyatiga bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

sug'urta shartnomalarini tuzish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish bilan band bo'lgan sug'urtalovchining xodimlari mehat haqini to'lash bo'yicha xarajatlar;

sug'urta ishini tashkil qilish va texnologiyasiga muvofiq, sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan sug'urtalovchining xarajatlari;

sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayoniga xizmat ko'rsatish bo'yicha sug'urta tashkilotini materiallar, moslamalar, inventar, xo'jalik jihozlari va boshqa vositalar bilan ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar;

sug'urta tovonlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

qayta sug'urta qilishga qabul qilingan tavakkalchiliklar bo'yicha zararlar ulushini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

sug'urta hodisasining oqibatlarini bartaraf qilish va to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar;

aktuariy, adjaster, syurveyer va assistans xizmatlari haqini to'lash bo'yicha xarajatlar;

oldini olish chora-tadbirlariga ajratmalar;

qayta sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha komission rag'batlantirishlar, tantiemalarni to'lash bo'yicha xarajatlar;

sug'urta vositachilariga komission mukofotlarni to'lash bo'yicha xarajatlar va boshq.

Xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 2010 "Sug'urta ishini yuritish xarajatlari" schyotiga materiallar, xodimlarga mehnat haqini to'lash bo'yicha hisob kitoblarni hisobga oluvchi va boshqa schyotlarning krediti bo'yicha o'tkaziladi.

Asosiy faoliyatni boshqarish va tashkil etish bilan bog'liq bilvosita xarajatlar 2010 "Sug'urta ishini yuritish xarajatlari" schyotiga 2510 "Umumishlabchiqarish xarajatlari" schyotidan o'tkaziladi.

2010 “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari” schyotining krediti bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning haqiqiy tannarxi aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari” schyotidan 9130 “Ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi” schyotining debetiga o‘tkaziladi.

Analitik hisob xarajatlar turlari va xizmatlar turlari bo‘yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir sug‘urtalovchi o‘zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari” schyotining analitik hisobi ham sug‘urtalovchining alohida bo‘linmalari bo‘yicha yuritiladi.

Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishini bir qator misollar asosida ko‘rib chiqamiz

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Bevosita sug‘urta ishiga xizmat ko‘rsatishda qatnashadigan asosiy vositalarning eskirishi	2010	0211-0299
2	Xizmat ko‘rsatishga taalluqli bo‘lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	2010	0510-0590
3	To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari xizmat ko‘rsatishga hisobdan chiqarilishi	2010	1010-1090
4	Materiallar qiymatidagi farq tegishli ulushlarda asosiy ish yuritish xarajatlariga hisobdan chiqarilishi	2010	1610
5	Umumishlabchiqarish xarajatlarining xizmatlarining tannarxiga kiritilishi	2010	2510
6	Ilgari kelgusi davr xarajatlari sifatida aks ettirilgan xarajatlarning tegishli ulushi xizmatlarning tannarxiga olib borilish	2010	3110-3190
7	Qondirilmagan da‘volar summasi xizmatlarining tannarxiga kiritilishi	2010	4860
8	Asosiy faoliyatdagi sug‘urta xarajatlari	2010	6510
9	Asosiy faoliyat xarajatlari bo‘yicha maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar	2010	6520
10	Asosiy faoliyat xodimlariga mehnat haqi to‘lash bo‘yicha summalar hisoblanishi	2010	6710

11	Hisobdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar	2010	4220-4290, 6970
12	Turli korxonalarga ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlari	2010	6990
13	Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining asosiy faoliyat ehtiyojlarga qilgan xarajatlari	2010	6110, 6120
14	Materiallarning asosiy faoliyatdan qaytarilishi	1010-1090	2010
15	Sug'urta agentlari va brokerlariga komission mukofotlarni hisoblash	2010	6040
16	Sug'urta tovonlarini tannarxga kiritish	2010	2210, 2220
17	Qayta sug'urta qilishga qabul qilingan tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urta tovonlarini hisobdan chiqarish	2010	2230
18	Qayta sug'urta qilishga oid brokerlik rag'batlantirishlar, tantiymalar va yig'implarni hisobdan chiqarish	2010	2410
19	Akturiylar (aktuariy tashkilotlari), adjasterlar (adjaster tashkilotlari, syurveyerlar (syurveyer tashkilotlari), assistanslarga (assinstans xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarga) to'lanadigan summalarining hisoblanishi	2010	6090
20	Oldini olish chora-tadbirlariga ajratmalar	2010	8040
21	Ish yuritish xarajatlarining ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxiga kiritilishi	9130	2010
22	Tabiiy ofatlar, yong'in va shu kabilar natijasida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar hisobdan chiqarilishi	9720	2010
23	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi	5910	2010

2.3. Sug'urta tashkilotlari sug'urta mukofatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish

Har qanday tijorat tashkiloti bir qancha turdagi tovar, xizmat yoki ishlarni ishlab chiqarish yoki sotish evaziga foyda olish maqsadida faoliyat yuritadi. Shuning uchun umumxo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi deganda, eng avvalo, tovar, ish yoki xizmatlarni sotishdan tushgan daromad va ushbu tovar, ish yoki xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarning hisobini amalga oshirish tushuniladi. Ma'lumki, buxgalteriyada tovar, ish va xizmatlarning sotilishi ularning tushirilishi holatiga yoki haqi to'lanishi holatiga buxgalteriyada hisobga olinishi mumkin.

Har qanday sug'urta tashkiloti ma'lum haq evaziga o'zining sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida sug'urta shartnomasi, agar boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti to'langandan yoki mukofot bo'lib to'lansa, birinchi to'lov amalga oshirilgandan so'ng kuchga kiradi. Demak, mazkur holatni tovarlarni sotish jarayoni bilan tenglashtiradigan bo'lsak, sug'urta tashkiloti sug'urta xizmatlarining sotilishi hisobi faqatgina ularning haqi to'lanish holatigagina olib borilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi sug'urta mukofoti to'langandan so'ng kuchga kirar ekan, to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlarining tushumi 6280 "To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari"da olib boriladi. Bunda ushbu schyot Kassadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar (5000), Chet el valyutasidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar (5200), Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar (5100) bilan korrespondensiyalanishi mumkin. Masalan, "Universal sug'urta "Farg'ona viloyati Qo'qon shahar bo'limining xisob-kitob schyotiga 2.01.2018 y. kuni "Qo'qon yog'-moy" AJ tomonidan mol –mulk sug'urtasi bo'yicha 520134 so'm sug'urta mukofati kelib tushdi .Bu operatsiyani buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks ettirildi

Debet 5110–Xisob –kitob schyoti

Kredit 6280–"To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari"

Ma'lumki, sug'urta mukofotlari o'zaro kelishuvga asosan bir martada emas, ma'lum davrlar oralig'ida bo'lib to'lanishi ham mumkin bo'ladi. Mazkur holatda sug'urtalanuvchi mukofotning bir qismini to'lagandan so'ng turli sabablarga ko'ra sug'urta shartnomasini tugatish to'g'risida ariza berishi yoki sug'urtalanuvchi navbatdagi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lamasligi oqibatida shartnoma o'z kuchini yo'qotishi va sug'urtalovchi to'langan sug'urta mukofotlariga proporsional ravishda majburiyatni olib borishi mumkin. Bunday hollarda ham kelib tushgan sug'urta mukofotlari 6280 schyotda aks ettiriladi va

davriy to‘lanadigan mukofotlar har bir to‘lov amalga oshirilganda hisobga olib boriladi.

Yuqoridagilardan tashqari 6280-“To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari” schyoti kredit bo‘yicha quyidagi schyotlar bilan ham korrespondensiyalanishi mumkin:

- sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar (6030);
- to‘lanadigan dividendlarni hisobga oluvchi schyotlar (6610);
- xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar (6710).

Quyidagi provodka orqali sug‘urta tashkilotining o‘z xodimlari tomonidan ular bilan tuzilgan sug‘urta shartnomasiga asosan to‘langan sug‘urta mukofotlari aks ettiriladi:

Debet 6710 – Xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 6280-“To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Quyidagi provodka orqali esa ta‘sischilarga tegishli dividendlar evaziga ular bilan tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini ushlab qolish aks ettiriladi:

Debet 6610 – “To‘lanadigan dividendlarni hisobga oluvchi schyotlar”

Kredit 6280- “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Ushbu provodka orqali sug‘urta tashkiloti tomonidan sug‘urta qoplamasini to‘lashda sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘lanmagan sug‘urta mukofotining ushlab qolinishi aks ettiriladi:

Debet 6030 – “Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar

Kredit 6280- “To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Sug'urta tashkilotlari tomonidan to'liq rasmiylashtirilmagan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini hisobga olish tartibiga to'xtalishdan avval sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish tartibini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchining yozma yoki og'zaki arizasiga asosan tuziladi. Sug'urta shartnomasining yozma shaklda tuzilmasligi uning kuchga ega emasligi bilan ifodalanadi. Yozma shaklda sug'urta shartnomasini tuzishni talab etmaydigan yagona istisno holati davlat majburiy sug'urtasida vujudga keladi. Bunda sug'urtalash shartlari va tartibi, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar qonunchilik asosida belgilanadi.

Sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchi quyidagilarga majburdir:

- barcha sug'urtalanayotgan obektlarni sanab o'tishi, agar hayot sug'urtasi bo'lsa, barcha sug'urtalanuvchilarni sanab o'tish;
- sug'urta shartnomasida nazarda tutilayotgan sug'urta hodisasining xarakteri to'g'risida ma'lumot berish;
- mulkiy sug'urtada sug'urtalanayotgan obektning qiymatini yoki mulkiy manfaatlarning maksimal qiymatini ko'rsatishi;
- sug'urta obekti bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoliga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni sug'urtalovchiga ko'rsatish.

Agar sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urta hodisasining ehtimolliigi yoki uning natijasida etadigan zararning hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sug'urtalanuvchi tomonidan yolg'on tarzda sug'urtalovchiga yetkazilganligi ma'lum bo'lsa, sug'urtalovchi muddatidan oldin sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

Mulkiy sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalovchi mulkni ko'rikdan o'tkazishi yoki uning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida maxsus ekspertlarni jalb qilish huquqiga ega. Hayotni sug'urtalash shartnomasini tuzishda

sug'urtalovchi sug'urtalanuvchidan sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash maqsadida meditsina ko'rigidan o'tishni talab etishi mumkin.

Tomonlar sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urta obektlarning ro'yxati, sug'urta hodisalarining turlari, sug'urta summasi va sug'urta shartnomasining amal qilish muddati borasida o'zaro kelishuvga erishishlari zarur. Ushbu sanab o'tilgan shartlar sug'urta shartnomasining muhim shartlari hisoblanib, sug'urta shartnomasida albatta keltirilgan bo'lishi qonunchilik asosida talab etiladi.

Sug'urta obektining sug'urta summasini belgilashda, ushbu sug'urta summasining sug'urta obektining qiymatidan oshib ketmasligiga e'tibor qaratish zarur.

Mol-mulkning haqiqiy qiymatini aniqlashning asosiy ikki turi mavjud:

Birinchisi, mulkning sug'urta shartnomasini tuzish sanasi holatiga balans qiymatini olish. Mazkur qiymat mulkning balansdagi qiymati va qonunchilik asosida unga hisoblangan eskirishning qayta baholanishi hisobga olingan holdagi farqi asosida hisoblanadi.

Ikkinchi usulda sug'urtalanayotgan mulkni sotib olish xarajatlarini eskirishni hisobga olgan holda qiymati belgilanadi.

Sug'urta obektining qiymati sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng o'zgartirilishi mumkin emas, faqatgina obektning qiymatini baholashda sug'urtalovchini sug'urtalanuvchi tomonidan chalg'itish holatlari yuz bergan holatlar bundan mustasno.

Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashda sug'urta summasi yetkazilishi mumkin bo'lgan sug'urta zararining maksimal hajmidan oshib ketishi mumkin emas. Agar mulkiy sug'urtada yoki tadbirkorlik riskini sug'urtalashda sug'urta summasi etishi mumkin bo'lgan sug'urta zararining maksimal hajmidan oshib ketsa, sug'urta shartnomasi sug'urta summasining maksimal sug'urta zararidan oshiq-roq qismida kuchga ega bo'lmaydi.

Hayot sug'urtasi va fuqarolik javobgarligini sug'urtalashda sug'urta summasi tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan belgilanadi.

Sugʻurta obekti toʻgʻrisida sugʻurtalanuvchi tomonidan berilgan maʼlumotlar va sugʻurta hodisasining ehtimolligini hisobga olgan holda sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasi asosida toʻlanadigan sugʻurta mukofotining summasini va toʻlash tartibini belgilaydi.

Sugʻurta shartnomasi sugʻurtalanuvchining arizasi asosida ikki tomonlama imzolangan shartnoma yoki sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurtalanuvchiga sugʻurta polisini berish orqali ham tuzilishi mumkin. Sugʻurta polisini olgan shaxs sugʻurtalash shartlari va talablari bilan rozi ekanligini namoyon etadi.

Sugʻurta shartnomasidagi sugʻurtalash shartlari va talablari sugʻurtalovchi tomonidan tuzilgan tasdiqlangan va Moliya vazirligi sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan deponent qilingan sugʻurta qoidalarida belgilanishi mumkin. Bunda sugʻurtalash shartlari sugʻurta polisining orqa tomonidan koʻrsatiladi yoki alohida shartnomaga ilova qilinadi. Shuningdek, sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi oʻzaro kelishgan holatda standart sugʻurta shartnomalarining baʼzi jihatlariga oʻzgartirishlar kiritgan holda shartnoma tuzishlari ham mumkin.

Sugʻurta qoidalarida yuqorida keltirilgan sugʻurtalashning muhim shartlaridan tashqari quyidagilar keltirilgan boʻlishi lozim:

- sugʻurta shartnomasi boʻyicha tomonlarning oʻzaro majburiyatlari, shuningdek, sugʻurta shartnomasi boʻyicha toʻlovlarni amalga oshirish boʻyicha majburiyatlar;
- sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta hodisasining yuz berish ehtimolligiga taʼsir etuvchi voqealarning sodir boʻlganligi toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga xabar berish tartibi va shartlari;
- sugʻurta shartnomasida nazarda tutilgan sugʻurta hodisasining sodir boʻlganligi toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga xabar berish tartibi va shartlari;

– sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta qoplamasini berish toʻgʻrisidagi daʼvolarni koʻrib chiqish va uni toʻlashni rad etish shartlari va tartibi;

– sugʻurta shartnomasining shartlariga oʻzgartirishlar yoki qoʻshimchalar kiritish tartibi;

– sugʻurta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi va shartlari.

Sugʻurta shartnomasi unda koʻrsatilgan muddatdan yoki sugʻurta mukofoti toʻlangan kundan kuchga kiradi. Lekin sugʻurtalovchi sugʻurta mukofoti toʻlanmasdan oldin sugʻurta hodisasi yuz bergan taqdirda sugʻurta javobgarligini olib bormaydi.

Baʼzi sugʻurta tashkilotlari sugʻurta polislarini rasmiylashtirishning quyidagi tartibini amalga oshirib boradilar.

Odatda, sugʻurta polisi sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta shartnomasi tuzish toʻgʻrisida bergan arizasi asosida rasmiylashtiriladi. Mazkur ariza ikki nusxada tayyorlanadi. Uning bir nusxasi sugʻurta tashkilotida qoladi ikkinchisi esa sugʻurta mukofoti toʻlash tartiblari koʻrsatilgan holda sugʻurtalanuvchiga qaytariladi. Sugʻurtalanuvchi sugʻurta tashkilotiga sugʻurta mukofotini toʻlaydi. Sugʻurta mukofoti toʻlangandan soʻng belgilangan muddatda sugʻurta tashkiloti sugʻurta polisini rasmiylashtiradi va sugʻurtalanuvchiga taqdim etadi.

Bunday holatda sugʻurta mukofotini qabul qilib olish quyidagi provodka asosida hisobga olinadi:

Debet 5000 (5100, 5200) — Pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 6330 -“Sugʻurtalanuvchilardan olingan boʻnak sugʻurta mukofotlari”

Sugʻurta polisining rasmiylashtirilishi va sugʻurtalanuvchiga taqdim etilishi quyidagi provodka bilan hisobga olinadi;

Debit 6330- “Sugʻurtalanuvchilardan olingan boʻnak sugʻurta mukofotlari”

Kredit 6280- To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Mazkur tarzda provodkalarini amalga oshirish, odatda, sug‘urta tashkilotlari tomonidan yuklarni sug‘urtalashda amalga oshiriladi. Chunki mazkur holatda, yuklarni sug‘urtalashda ariza berilgandan so‘ng sug‘urta tashkiloti uchun yuklarni ko‘rikdan o‘tkazish va tegishli ma‘lumotlarni olishi uchun vaqt talab qilinadi. Bunday ma‘lumotlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- yukning aniq nomi, uning o‘rami og‘irligi va hajmi;
- konosament va boshqa yuk tashish hujjatlarining sanasi va raqamlari;
- transport turi (dengiz transportida kemaning tonnaji va qurilgan yili sanasi);
- yukni jo‘natish tartibi;
- yukni jo‘natish sanasi va riskni baholash uchun kerakli boshqa ma‘lumotlar.

Ko‘p hollarda sug‘urtalanuvchi barcha savollarga bir vaqtning o‘zida javob topa olmaydi. Shu bilan birga, sug‘urta shartnomasi to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng kuchga kiradi. Shuning uchun sug‘urta tashkilotlari taqdim etilgan dastlabki ma‘lumotlar asosida dastlabki sug‘urta mukofotini hisoblab chiqib dastlabki sug‘urta shartnomasini tuzishi mumkin. Bunday shartnomaning asosiy sharti shundaki, sug‘urtalanuvchi belgilangan vaqt davomida sug‘urtalovchiga sug‘urta riski darajasini aniqlash imkonini beruvchi ma‘lumotlarni taqdim etishi kerak. Ushbu ma‘lumotlar taqdim etilgandan so‘ng yakuniy sug‘urta mukofoti hisoblab chiqiladi va yakuniy sug‘urta shartnomasi tuziladi.

Agar sug‘urtalanuvchi tomonidan kerakli ma‘lumotlar taqdim etilmasa, yoki sug‘urtalanuvchi sug‘urta mukofotini to‘lashni rad etsa, sug‘urta shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi va sug‘urta mukofoti qaytarilib beriladi.

Bundan tashqari, yakuniy hisoblangan sug'urta mukofoti dastlabki sug'urta mukofotidan kam bo'lsa, ortiqcha summa sug'urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarni buxgalteriyada aks ettirish tartibini ko'rib chiqamiz.

Dastlabki sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urtalanuvchi ma'lum miqdorda sug'urta mukofotini to'lashi zarur. Mazkur holatda sug'urta shartnomasining to'liq rasmiylashtirilmaganligini hisobga olib quyidagi provodkani berish mumkin:

Debet 5000 (5100, 5200) – – Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 6330- “Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari”

Agar sug'urta shartnomasi tuzilmasa, sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchiga to'liq qaytariladi:

Debet 6330- “Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari”

Kredit 5000 (5100, 5200)- – Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Agar yakuniy sug'urta shartnomasi tuzilib, ortiqcha to'langan sug'urta mukofoti qaytarilishi zarur bo'lgan holda, qaytariladigan summaga yuqoridagi provodka amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yakuniy sug'urta shartnomasi tuzilishi bilan sug'urta mukofoti summasiga quyidagi provodka beriladi:

Debet 6330 – Sug'urtalanuvchilardan olingan bo'nak sug'urta mukofotlari”

Kredit 6280- To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari”

Agar yakuniy sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urta mukofoti dastlabkisidan ortiq bo'lsa, dastlabki mukofot uchun yuqoridagi provodka, yetishmagan summa uchun esa quyidagi provodka amalga oshiriladi:

Debet 5000 (5100, 5200) – – Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 6280- To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Amaliyotda ba‘zi hollarda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 928-moddasida nazarda tutilgan tartibda Bosh polis bo‘yicha sug‘urtalash amalga oshiriladi. Bunda bir turdagi tovarlarning turli vaqtlarda yetkaziladigan partiyalari sug‘urtalanishi sug‘urta shartnomasida belgilab o‘tiladi.

Sug‘urta tashkiloti bilan tuzilgan sug‘urta shartnomasida sug‘urtalanuvchining butun tovar oborotiga tegishli sug‘urta mukofoti sug‘urtalanuvchiga bo‘nak sifatida o‘tkazilib berilishi mumkin. Bo‘nakning to‘liq summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 5000 (5100, 5200) – – Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 6330- Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari”

Keyinchalik har bir partiya tovar uchun rasmiylashtirilgan polisda ko‘rsatilgan summaga bo‘nakning hajmi kamaytiriladi:

Debet 6330 – Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari”

Kredit 6280- To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Bosh sug‘urta shartnomasining muddati tugashi bilan depozitning foydalanilmay qolgan summasi sug‘urtalanuvchiga qaytarib beriladi:

Debet 6330 – Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari”

Kredit 5000 (5100, 5200)- – Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar

Ba‘zi hollarda bosh polis bo‘yicha sug‘urtalash shartnomalarida shartnoma muddatining tugashi bilan depozit qoldig‘iga nisbatan kelishilgan foizda daromad ham hisoblanishi mumkin. Foizlarni belgilash

qarzdorlikmunosabatlariga xos ravishda amalga oshiriladi, lekin depozit qoldig'i qarz sifatida hisobga olinmaydi.

Ma'lumki, sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatini faqatgina o'zi emas, balki sug'urta agentlari va brokerlari orqali ham amalga oshirishi mumkin. Agar sug'urta agentining vazifasi faqatgina sug'urtalanuvchini topish shartnoma tuzish uchun sug'urta tashkilotiga olib kelish bo'lganda ular bo'yicha qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish talab etilgan bo'lardi.

Lekin sug'urtalovchi bilan sug'urta agenti o'rtasida tuzilgan o'zaro agentlik kelishuviga asosan sug'urta agenti sug'urtalovchining nomidan sug'urta shartnomasini tuzishi va o'z vakolati doirasida sug'urta mukofotlarining summalarini belgilashi hamda to'langan sug'urta mukofotlarini qabul qilishi mumkin. Sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazib beradi.

Qonunchilikka asosan sug'urta shartnomasi agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti to'langandan so'ng kuchga kiradi. Bunda sug'urta agenti bilan tuzilgan sug'urta shartnomasining to'lovi sanasi sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta agentiga sug'urta mukofotining o'tkazilgan sanasi hisoblanadi. Shuning uchun sug'urta mukofotlarining sug'urtalovchiga kelib tushgan sana emas, balki sug'urtalanuvchining hisob raqamidan olingan sana sug'urta mukofotining to'langan sanasi sifatida hisobga olinadi.

Sug'urta mukofotlarining kelib tushishi 6280 schyotda hisobga olib boriladi. Lekin sug'urta mukofotining to'lovi amalga oshirilib, hamon sug'urta tashkilotining kassasiga yoki hisob raqamiga kelib tushmagan taqdirda ularga quyidagicha provodka berish noto'g'ri hisoblanadi:

Debet 5000 (5100, 5200) – “Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar”

Kredit 6280- “To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari”

Sug'urta agenti va brokerlari bilan hisob-kitoblarni 6040 schyot “Sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan schyotlar” va 4040 schyot “Sug'urta

agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar”da amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun sug‘urta agenti tomonidan sug‘urta shartnomasi tuzilganligi to‘g‘risida xabar berilgandan so‘ng sug‘urta mukofotining butun summasiga provodka berish maqsadga muvofiq:

Ya’ni, “Universal sug‘urta “ Farg‘ona viloyati filiali Qo‘qon bo‘limi sug‘urta agenti K.Xaydarov tomonidan fuqoro A.Salimovning mol-mulki sug‘urtalanishi sababli sug‘urta shartnomasi 15890000 so‘mga tuzilganligi va shartnomaga asosan sug‘urta summasiga nisbatan 0, 7% sug‘urta mukofoti ya’ni 111230 so‘m hisoblanganligi sug‘urta agenti tomonidan habar qilingan. Bu holda sug‘urta mukofotining butun summasiga quyidagicha buxgalteriya provodkasini berish maqsadga muvofiq:

Debet 4040 – “Sug‘urta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar”

Kredit 6280- To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Agentlik kelishuviga asosan sug‘urta agenti belgilangan muddatda sug‘urtalovchiga sug‘urta mukofotini o‘tkazib beradi:

Debet 5000 (5100, 5200) – “Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar”

Kredit 4040-“**Sug‘urta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar**”

Agentlik shartnomasi asosida sug‘urta agenti sug‘urta shartnomasini tuzganligi sababli, tegishli komission mukofotlarni oladi. Komission mukofotlarning summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 2010 -“Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari”

Kredit 6040-“Sug‘urta agentlari va brokerlariga to‘lanadigan schyotlar”

Haqiqatda to‘langan sug‘urta mukofotlari quyidagi provodka orqali hisobga olinadi:

Debet 6040 – “Sug‘urta agentlari va brokerlariga to‘lanadigan schyotlar”

Kredit 5000 (5100, 5200)- Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar”

Agar sugʻurta agentiga oʻz komission mukofotlarini oʻzi hisoblashiga ruxsat berilgan boʻlsa, sugʻurta agenti kelib tushgan sugʻurta mukofotlaridan oʻziga tegishli komission mukofotlarni chegirgan holda sugʻurta tashkilotiga oʻtkazib berishi mumkin. Ushbu holatda komission mukofotlarni hisobdan chiqarish quyidagi provodkalar orqali amalga oshiriladi:

Debet 4040 – Sugʻurta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar

Kredit 6280- Toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari”

Oʻtkazilgan sugʻurta mukofoti summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 5000 (5100, 5200) –“Pul mablagʻlarini hisobga oluvchi schyotlar”

Kredit 4040- “Sugʻurta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar”

Sugʻurta agentiga toʻlanadigan komission mukofotga quyidagicha provodka berish orqali hisoblanadi:

Debet 2010 -“Sugʻurta ishini yuritish xarajatlari”

Kredit 6040-“Sugʻurta agentlari va brokerlariga toʻlanadigan schyotlar”

Sugʻurta agenti tomonidan ushbu qolinga komission mukofot summasiga quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

Debet 6040 – “Sugʻurta agentlari va brokerlariga toʻlanadigan schyotlar”

Kredit 4040- Sugʻurta agentlari va brokerlaridan olinadigan schyotlar

Bu holat sugʻurta brokerlari bilan boʻladigan hisob-kitoblarda ham kuzatiladi.

2.4. Sugʻurta tashkilotlarida sugʻurta qoplamalari toʻlashni hisobga olishning oʻziga xos jixatlari

Maʼlumki, sugʻurta shartnomasiga asosan sugʻurtalovchi shartnomada belgilangan hodisa yuz bergan taqdirda sugʻurtalanuvchiga sugʻurta qoplamasini toʻlab berishi lozim. Sugʻurta shartnomasida belgilangan sugʻurta hodisasi yuz

berganda sug'urtalanuvchi zudlik bilan sug'urtalovchini xabardor qilishi zarur hisoblanadi. Xuddi shunday majburiyat sug'urta shartnomasi to'g'risida xabardor bo'lgan naf oluvchining zimmasida ham mavjud, agar u sug'urta qoplamasini olish huquqidan foydalanmoqchi bo'lsa, albatta, sug'urta hodisasi to'g'risida sug'urtalovchini xabardor qilishi shart.

Sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi arizani olgandan so'ng sug'urta voqeasini izchil o'rganadi va ushbu voqea sug'urta hodisasi sifatida tan olinsa, shartnoma belgilangan tartibda va shartlarda sug'urta qoplamasini to'lab berishi mumkin. Sug'urta qoplamasi quyidagilar asosida amalga oshiriladi: sug'urta shartnomasi, sug'urtalanuvchining arizasi, qonunchilik asosida tuzilgan sug'urta dalolatnomasi, sug'urtalovchining xodimlari va huquqni muhofaza qilish organlari, banklar, meditsina muassasalari va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlari hamda sug'urtalovchi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida to'plangan ma'lumotlar.

Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchilar, u vafot etgan taqdirda, uning merosxo'rlari sug'urta qoplamasini olish uchun quyidagilarni sug'urtalovchilarga taqdim etadi:

- sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi, sertifikat, kvitansiya);
- murojaat etganning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar;
- agar murojaat qilgan shaxs sug'urtalanuvchi, sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi bo'lmasa, uning sug'urta shartnomasiga aloqadorligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- agar sug'urtalanuvchi, sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi vafot etgan taqdirda, murojaat etgan shaxsning uni merosxo'ri ekanligini tasdiqlovchi hujjat.
- Ariza va sug'urta dalolatnomasiga quyidagilar ilova qilinadi:
- sug'urta hodisasini keltirib chiqargan hodisaning yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

- sugʻurta hodisasi yuz berishining sabablarini tasdiqlovchi hujjatlar (tegishli vakolatli organlarning dalolatnoma, maʼlumotnoma va xulosalari) va guvohlarning koʻrsatmalari;

- mulkning zararlanishi va sugʻurta hodisasining oʻzaro bogʻliqligini tasdiqlovchi hujjatlar (zararlangan mulkni koʻrikdan oʻtkazgandan soʻng tegishli vakolatli organlarning va sugʻurtalovchi vakillarining xulosalari);

- yetkazilgan zararining hajmini tasdiqlovchi hujjatlar;

- ushbu ishga bevosita aloqador boʻlgan boshqa hujjatlar.

Odatda, sugʻurtalovchi yetkazilgan zararni toʻlash uchun kerakli boʻlgan hujjatlarning tarkibini oʻzi belgilaydi va sugʻurta qoplamasini toʻlash toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Sugʻurta kompaniyasi sugʻurta hodisasini oʻrganayotgan davrda quyidagilar aniqlangan taqdirda, sugʻurta qoplamasini toʻlashni rad etishi mumkin:

- sugʻurta hodisasi sugʻurtalanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan ataylab sodir etilganda;

- sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta obekti toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga notoʻgʻri maʼlumotlar taqdim etilganda;

- sugʻurta hodisasining yuz berish ehtimoligini oshishi holatlarini sugʻurtalanuvchi oʻz vaqtida sugʻurtalovchiga xabar qilmaganda;

- sugʻurta hodisasi toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga oʻz vaqtida xabar berilmaganligi natijasida sugʻurta hodisasini oʻrganishning imkoni boʻlmagan taqdirda;

- sugʻurta hodisasining holatlari va yetkazilgan zararining hajmi toʻgʻrisida sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurtalovchiga notoʻgʻri maʼlumot berilganda;

- sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta zararini kamaytirish maqsadida chora-tadbirlar qasddan amalga oshirilmagan taqdirda;

– sugʻurtalanuvchi tomonidan sugʻurta hodisasining yuz berishida aybdor boʻlgan shaxsga nisbatan daʼvosini oʻz ixtiyori bilan qaytarib olishi yoki daʼvo qilishda yetarli harakatlarni amalga oshirmagan taqdirda;

– sugʻurta shartnomasida belgilangan boshqa sugʻurta qoplamasining toʻlanmasligini tasdiqlovchi holatlar.

Quyidagi hodisalar oqibatida yetkazilgan zararlar qoplanmaydi:

- yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish;
- harbiy harakatlar, manyovrlar yoki harbiy tadbirlar;
- fuqarolar urushi, qoʻzgʻolon yoki turli ommaviy tartibsizliklar;
- musodara qilish, olib qoʻyish yoki davlat organlarining topshirigʻiga binoan sugʻurtalangan mulkning yoʻqotilishi.

Sugʻurtalovchi sugʻurta qoplamasini toʻlashni rad etganligi toʻgʻrisida sugʻurtalanuvchini shartnomada belgilangan muddatlarda xabardor qilishi shart. Sugʻurtalovchining sugʻurta qoplamasini toʻlashni rad etish toʻgʻrisidagi qarori ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda sugʻurtalanuvchi tomonidan sudlarga daʼvo kiritilishi mumkin.

Boshqa barcha holatlarda sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasi va qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda sugʻurta qoplamasini toʻlashi shart.

Har qanday holatda sugʻurta qoplamasi sugʻurtalangan mulkning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi zarur. Agar sugʻurta shartnomasida belgilangan sugʻurta puli sugʻurta obektining haqiqiy qiymatidan past boʻlsa, yetgan zarar boʻyicha sugʻurta qoplamasining hajmi sugʻurta puliga proporsional tarzda kamaytiriladi.

Ushbu holatni misol asosida koʻrib chiqamiz.

Ishlab chiqarish binosining bozor narxi 75000ming soʻm. Sugʻurta shartnomasi tuzilganda uning sugʻurta puli 60000ming soʻm etib koʻrsatilgan. Sugʻurta hodisasining yuz berishi natijasida Ishlab chiqarish binosiga 20350

ming so‘mlik zarar yetdi, ya‘ni ishlab chiqarish binosiga yetgan zararining to‘liq summasi 20350 mingso‘mni tashkil etadi.

Lekin sug‘urtalovchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi $60000/75000 \cdot 20350 = 16280$ ming so‘mni tashkil etadi.

Agar sug‘urtalovchi bir obektni turli sug‘urtalovchilarda sug‘urtalagan taqdirda u barcha sug‘urtalovchilardan sug‘urta qoplamalarini olishi mumkin, lekin olingan sug‘urta qoplamalari yetkazilgan zararining haqiqiy summasidan oshib ketmasligi zarur.

Mazkur holatni misolda ko‘rib chiqamiz. Yuqorida keltirilgan ishlab chiqarish binosi egasi o‘z binosini ikki sug‘urtalovchida muvofiq ravishda sug‘urta pulini 45000ming va 50000ming so‘m qilib sug‘urta shartnomasida belgilagan. Ko‘rinib turibdiki, sug‘urta pullarining yig‘indisi avtomobilning haqiqiy qiymatidan yuqori.

Birinchi sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamasini quyidagi hajmda to‘laydi:

$$45000/(45000+50000) \cdot 20350 = 9639,47 \text{ ming so‘m}$$

Ikkinchi sug‘urtalovchi $50000/(45000+50000) \cdot 20350 = 10710,52$ ming so‘m sug‘urta qoplamasini to‘laydi.

Sug‘urtalovchi tomonidan yetkazilgan zarardan ko‘proq summani undirish holatining oldini olish uchun sug‘urtalovchilar tegishli tashkilotlarning xulosalarining asl nusxalarini talab etadilar.

Sug‘urta shartnomasida sug‘urta zararining sug‘urtalanuvchi tomonidan qoplanadigan qismi – franshiza ham ko‘rsatilishi mumkin. Franshizaning shartli va shartsiz turlari mavjud. Shartli franshiza belgilangan sug‘urtalovchi sug‘urta zarari franshizaning summasidan oshgan taqdirda to‘liq qoplab beradi aks holda esa zarar qoplanmaydi. Shartsiz franshiza o‘rnatilganda sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamasini to‘lashda franshiza sifatida belgilangan summani chegirib qoladi.

Yuqorida keltirilgan misol asosida franshizaning hisoblani shini ko‘rib chiqamiz. Misolda sug‘urta obektining qiymati 75000ming so‘m, uning sug‘urta shartnomasida belgilangan sug‘urta puli 60000ming so‘m. Agar sug‘urta

shartnomasida franshiza 8000ming so‘m sifatida belgilansa va u shartli bo‘lsa, sug‘urta qoplamasining summasi quyidagicha bo‘ladi:

$$60000/75000 \cdot 20350 = 16280 \text{ ming so‘m}$$

Agar franshiza shartsiz hisoblansa sug‘urta qoplamasining hajmi:

$$16280 - 8000 = 8280 \text{ ming so‘m bo‘ladi.}$$

Agar sug‘urtalanuvchi sug‘urta hodisasi natijasida yetgan zararning bir qismini aybdor shaxslardan undirsa, sug‘urta qoplamasi o‘sha summaga kamaytiriladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomalarida sug‘urta summasi boshqa sug‘urta shartnomalari bo‘yicha belgilangan sug‘urta summalaridan qat’i nazar to‘liq amalga oshiriladi.

Javobgarlikni sug‘urtalashda sug‘urta qoplamasi uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar doirasida arizada ko‘rsatilgan jabrlanuvchiga to‘lab beriladi. Agar jabrlanuvchi vafot etgan bo‘lsa, sug‘urta qoplamasi uning merosxo‘rlariga to‘lab beriladi. Faqatgina sug‘urta qildiruvchi sug‘urta zararini o‘zi qoplagan taqdirda sug‘urta qoplamasi to‘lanmasligi mumkin. Agar u naf oluvchiga sug‘urta qoplamasini to‘lab berganligi to‘g‘risidagi hujjatlarni taqdim etsa, bunday holda sug‘urta qoplamasi sug‘urtalanuvchining o‘ziga to‘lab beriladi.

Hayot sug‘urtasida sug‘urta hodisasi sifatida ma’lum yoshgacha yashash yoki shaxsning vafot etishi hisoblanadi. Bunda sug‘urtalanuvchiga shartnomada belgilangan sug‘urta qoplamasi sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urtalovchiga sug‘urta shartnomasi taqdim etilganda to‘lab beriladi.

Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatlarda sug‘urtalanuvchiga sug‘urta qoplamasini to‘lab berishi shart. Sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamasini o‘z vaqtida to‘lab bermagan taqdirda, u sug‘urtalanuvchiga jarima (penya) to‘laydi. Jarima hajmi shartnoma va qonunchilik asosida belgilanadi.

Sug'urta tashkilotida sug'urta qoplamalarini hisobga olish uchun sug'urta tovonlarini hisobga oluvchi schyotlar (2200) mo'ljallangan. Ushbu schyotlarga quyidagilar kiradi:

2210 schyot "Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari";

2220 schyot "Muddatidan oldin tugatilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta tovonlari".

Yuqoridagilardan tashqari o'tgan davrlarda yuz bergan sug'urta hodisalari bo'yicha to'lanadigan sug'urta qoplamalari quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

9431 schyot "To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, o'tgan davrda xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari";

9432 schyot "To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari".

Mazkur schyotlarning debetida haqiqatda to'langan sug'urta qoplamalari aks ettiriladi va u pul to'lanadigan schyotlar bilan korrepondensiyalanadi: Masalan, 2018 yil yakunlariga ko'ra "Unversal sug'urta" Farg'ona viloyati filiali Qo'qon shahar bo'limiga yuridik shaxslar tomonidan sug'urta tovonini to'lab berish bo'yicha ikkita ariza kelib tushgan va shu arizalarga asosan 8 457000 (sakkizmillion to'rtyuz ellik yetti ming) so'm sug'urta qoplamasi to'lab berilgan. Ushbu operatsiya buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks etiriladi:

Debet 2210 – Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari"

Kredit 5110-Xisob –kitob schyoti

Agar sug'urta hodisasi yuz berib, sug'urtalovchiga xabar qilingan bo'lsa va ushbu hodisa bo'yicha tekshiruv ishlari muddati uzayib, sug'urta qoplamasini o'sha davrda to'lash imkonini bermagan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta qoplamalarini kafolatlash maqsadida maxsus zaxira "Xabar qilingan lekin

bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”ni shakllantiradi. Bu zaxira buxgalteriya hisobida 8030 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi” da hisobga olinadi. Ushbu schyotning kredit tomoni 9250 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”ning debet tomoni bilan korrespondensiyalanadi.

Debet 9250 – Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”

Kredit 8030–“Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”

Agar sug‘urtalanuvchining arizasida sug‘urta zararining summasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u holda yuqoridagi provodka yetishi mumkin bo‘lgan zararining barcha summasiga amalga oshiriladi. Shunday qilib, schyot 8030 schyot “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”da o‘tgan davrlarda sug‘urtalovchiga xabar qilingan sug‘urta zararlari bo‘yicha majburiyatlar va zararlarni qoplash xarajatlari aks ettiriladi.

Misol:12 .01.2013yil kuni “Unversal sug‘urta “YOAJ farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar bulimiga xabar qilinishicha, sug‘urtalanuvchi fuqoro Alimov xonadonida sug‘urta xodisasi tufayli sug‘urtalangan bino zararlan. Sug‘urta tashkiloti vakillari tomonidan tekshirilganda xaqiqatda sug‘urta hodisasining yuz berganligi tasdiqlangan va ko‘rilgan zarar bo‘yicha 6320000 so‘m sug‘urta qoplamasi xisoblangan. Sug‘urta qoplamasining hisoblangan summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 2210 (2220, 9431, 9432) – Hisobot davrida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta tovonlari”;

Kredit 6030–“Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar”

Ushbu hisoblangan 6320000 so‘m sug‘urta qoplamasi 28. 06.2018 yil kuni “Unversal sug‘urta” Farg‘ona viloyati filali Qo‘qon shahar bulimi tomonidan, sug‘urtalanuvchi fuqoro Alimovga to‘lab berilgan.. Sug‘urta qoplamasi to‘langan vaqtda quyidagi provodka beriladi:

Debet 6030 – “Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar”

Kredit 5110–“Xisob –kitob schyoti”

Bir vaqtning o‘zida sug‘urta qoplamasining to‘lanishi bilan quyidagicha provodka beriladi:

Debet 8030 – Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”

Kredit 9250-Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”

Shuningdek, sug‘urta qoplamasini amalga oshirish bilan bog‘liq sug‘urta - lovchining xarajatlari 2010 schyot “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari” orqali hisobga olinadi:

Debet 2010 – “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari”

Kredit 5010 (5110, 5210)-“Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar”

Agar sug‘urta qoplamasining summasi yoki zararlarni bartaraf etish xarajatlari xabar qilingan zararlar summasidan kam bo‘lsa, sug‘urta qoplamasi summasiga berilgan

Debet 6030 – “Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar”

Kredit 5010 (5110, 5210)- “Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar”

va

Debet 8030 – “Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”

Kredit 9250-Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”hamda zararlarni bartaraf etish xarajatlari summasiga berilgan

Debet 2010 – “Sug‘urta ishini yuritish xarajatlari”

Kredit 5010 (5110, 5210)- “Pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar”

va

Debet 8030 – Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”

Kredit 9250- Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”

Provodkalaridan so‘ng xabar qilingan zarar va haqiqatda to‘langan sug‘urta qoplamalar o‘rtasidagi farq summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 8030 – Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”

Kredit 9250- Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”

Agar xabar qilingan sug‘urta hodisasi tekshirilgandan so‘ng sug‘urta qoplamasini to‘lash sug‘urtalovchi tomonidan rad etilsa, sug‘urtalovchi majburiyatining o‘z-o‘zidan kamayishi ham quyidagi provodka orqali hisobga olinadi:

Debet 8030 – Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi”

Kredit 9250- Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o‘zgarishining natijasi”

Mazkur provodka xabar qilingan zarar va uni bartaraf etish xarajatlari summasiga beriladi.

Agar sug‘urta shartnomasida sug‘urta mukofotini bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, navbatda to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta mukofoti sug‘urtalanuvchi tomonidan kechiktirilayotgan holatda sug‘urta hodisasi yuz bersa, sug‘urtalovchi navbatdagi kechiktirilgan sug‘urta mukofotini hisobga olishga haqqi bor. Bunda sug‘urta qoplamasi summasi kechiktirilgan sug‘urta mukofoti summasiga kamaytiriladi va kamaytirilgan summaga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 6030 –“Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan schyotlar”

Kredit 6280 -To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”

Sug‘urta shartnomasida belgilangan sug‘urta summasidan past summada sug‘urta qoplamasi to‘langandan so‘ng sug‘urta shartnomasi amal qilishini to‘xtatmaydi. Lekin sug‘urta summasi to‘langan sug‘urta qoplamasi summasiga kamaytiriladi.

Sug‘urtalanuvchi sug‘urta summasini tiklash maqsadida qo‘shimcha ravishda sug‘urta mukofotini sug‘urtalovchiga to‘lashi va shartnoma bo‘yicha sug‘urta summasini tiklashi mumkin.

Agar sugʻurtalanuvchi sugʻurta qoplamasini olish maqsadida bergan arizasida sugʻurta summasini tiklash xohishini bildirgan taqdirda, sugʻurtalovchi toʻlanayotgan sugʻurta qoplamasidan sugʻurta summasini tiklovchi sugʻurta mukofoti summasini olib qolish huquqiga ega. Bu operatsiya quyidagi provodka asosida amalga oshiriladi:

Debet 6030 – “Sugʻurtalanuvchilarga toʻlanadigan schyotlar”

Kredit 6280- “Toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlari”

Yuqoridagiga muvofiq ravishda 6030 schyot “Sugʻurtalanuvchilarga toʻlanadigan schyotlar”ning debeti boʻyicha hayot sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta shartnomalari asosida berilgan ssudalar boʻyicha qarzdorlikni qoplash boʻyicha 4070 “Hayot sugʻurtasi boʻyicha berilgan ssudalar boʻyicha olinadigan schyotlar”ning krediti bilan korrespondensiyalanishi mumkin.

Sugʻurta shartnomalari boʻyicha ssudalar berish tartibi va shartlarini koʻrib chiqamiz. Ssudalar asosan uzoq muddatli hayot sugʻurtasi shartnomalari boʻyicha beriladi. Bu shartnomalarda quyidagilar sugʻurta hodisasi hisoblanishi mumkin:

- sugʻurtalanuvchining vafot etishi;
- sugʻurtalanuvchining shartnomada belgilangan muddatgacha yashashi;

Shuningdek:

- sugʻurta shartnomasida belgilangan tartibda pensiyalar yoki annuitetlarning toʻlanishi;

- sugʻurta shartnomasining amal qilish davrida joriy toʻlovlarni amalga oshirish.

Hayotni sugʻurtalash shartnomalari bir yildan kam boʻlmagan muddatga tuziladi. Hayot sugʻurtasida sugʻurta mukofoti aktuar hisoblar asosida, vafot etish darajasi jadvali va investitsion daromadlar darajasini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi. Bunda sugʻurta mukofoti sugʻurta summasiga juda yaqin boʻladi. Masa-lan, 30 yoshli shaxs bilan 3 yilga tuzilgan sugʻurta shartnomasi

bo'yicha, agar yillik daromadlilik darajasi 20% bo'lsa, sug'urta mukofoti sug'urta summasining 55-60% ini tashkil etadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq sug'urtalovchilar sug'urta mukofotlari evaziga shakllantirgan sug'urta zaxiralari mablag'larini daromad olish maqsadida investitsiya qilishi mumkin. Sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishning bir yo'nalishi bu hayot sug'urtasi shartnomalari bo'yicha ssudalar berish hisoblanadi. Sug'urtalovchi tomonidan ssudalar faqatgina u bilan hayot sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urtalanuvchilargagina berilishi mumkin. Ssudalarning ta'minoti sifatida sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi bo'yicha shakllantirgan sug'urta summasi hisoblanadi.

Sug'urtalanuvchilarga ssudani berish jarayoni quyidagi provodka bilan hisobga olinadi:

Debet 4070 – “Hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan ssudalar bo'yicha olinadigan schyotlar”

Kredit 5010 (5110)-Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Agar sug'urta qoplamasi to'lanishi zarur bo'lgan taqdirda, sug'urtalanuvchi tomonidan ssuda o'z vaqtida qoplanmagan bo'lsa, ssuda qarzi va foizi sug'urta qoplamasidan chegirib qolinadi. Ushbu operatsiya quyidagi provodkalar orqali hisobga olinadi:

Debet 6030 –“Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar

Kredit 4070- Hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan ssudalar bo'yicha olinadigan schyotlar”

Ssuda bo'yicha foizlar summasiga

Debet 6030– “Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar”

Kredit 4830- “Olinadigan foizlar”

Ma'lumki, qayta sug'urtaga berilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi sug'urtalanuvchining oldida to'liq sug'urta summasi doirasida javobgar bo'ladi. Shuning uchun barcha provodkalar to'liq sug'urta summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Moliyaviy natijalarni aniqlashda 2210-2220 schyotlarning debet tomonidagi qoldig'i 2010 "Sug'urta ishini yuritish xarajatlari" schyotining debetiga o'tkaziladi:

Debet 2010 – "Sug'urta ishini yuritish xarajatlari

Kredit 2210 (2220)- Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari";

Hisobot davrining oxirida 9431 "To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, o'tgan davrda xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari" schyoti va 9432 "To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, lekin hisobot davrida xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari" schyoti 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti bilan bog'langan holda yopiladi:

Debet 9910 – Yakuniy moliyaviy natija"

Kredit 9431 (9432)- To'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha o'tgan davrlarda sodir bo'lgan, o'tgan davrda xabar qilingan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari"

Agar sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchining sug'urta qoplamasini olish huquqidan mahrum qiluvchi holatlar aniq ko'rsatilgan bo'lsa va sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchiga to'langanidan so'ng mazkur holatlar sug'urtalovchi tomonidan aniqlangan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi yoki sug'urtalovchidan sug'urta qoplamasini qaytarib undirib olish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqiga ega. Bunda sug'urta qoplamasining qaytarilishi ikki tomonning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Agar sug'urtalanuvchi yoki naf oluvchi noto'g'ri tartibda to'langan sug'urta qoplamasini to'lashni rad etsa, sug'urtalovchi qonunchilikda belgilangan tartibda qoplamaning undirish choralari ko'rishini mumkin.

Noto'g'ri to'langan sug'urta qoplamasini qaytarib olinishini buxgalteriya hisobida qayd etish tartibini ko'rib chiqamiz.

2200 schyotda sug'urtalovchi tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari hisobi olib boriladi. Shuning uchun sug'urta hodisasi yuz bermaganligi aniqlangandan so'ng to'langan sug'urta qoplamalarini qaytarib olish da'vosi ushbu schyotning kreditida aks ettiriladi. Bunda sug'urta qoplamasi qaytarib olinganligi sababli, xarajatlarning kamayganligi aks etadi. Lekin ushbu sug'urta summalarini to'g'ridan-to'g'ri quyidagi provodka orqali hisobga olish noo'rin hisoblanadi:

Debet 5010 (5110, 5210) –“Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 2210 (2220)- Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari”;

Mazkur jarayonni 4030 schyot “Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar” orqali hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Debet 4030 – Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar”

Kredit 2210 (2220)- Hisobot davrida to'g'ridan-to'g'ri sug'urta bo'yicha sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari”;

Sug'urta summasining olinishi

Debet 5010 (5110, 5210) –“Pul mablag'larini hisobga oluvchi

Kredit 4030- Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar”

Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchining zararlangan mol-mulkidan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi va sug'urta qoplamasini to'liq sug'urtalovchidan olishi belgilangan bo'lishi mumkin. Tegishli sug'urta qoplamalarini hisobga olish quyidagicha amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq mol-mulkka yetgan zararining summasi uning qiymatidan oshishi mumkin emas.

To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zarar deganda uni sug'urta hodisasi sodir bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan holatini tiklash uchun qilingan xarajatlar yoki agar obektni tiklashning imkoni bo'lmagan taqdirda qaytadan yangisini qurish yoki sotib olish bilan bog'liq xarajatlar tushuniladi. Shuning uchun 2200 schyot “Sug'urta tovonlarini hisobga oluvchi schyotlar”da

sug'urta zararining ekspertlar tomonidan aniqlangan va sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasini hisobga olgan holda to'lanadigan sug'urta qoplamalari summalari aks ettiriladi.

Sug'urtalanuvchi bilan hisob-kitoblarning olib borilishini 6030 schyot "Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar" bilan korrespondensiyalangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Debet 2200- Sug'urta tovonlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Kredit 6030 -"Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar"

Agar sug'urta shartnomasida zararlangan mulk bo'yicha huquqlarning sug'urtalovchiga o'tkazilishi nazarda tutilgan bo'lsa, tomonlarning o'zaro qabul topshirish dalolatnomasi asosida mulkning sug'urtalovchiga berilishi quyidagi provodkalar asosida amal-ga oshiriladi.

Qabul topshirish dalolatnomasining imzolanishiga:

Debet 4030- Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar"

Kredit 2200- Sug'urta tovonlarini hisobga oluvchi schyotlar"

Mulkning sug'urta tashkiloti tomonidan qabul qilib olinishi:

Debet 0100 (1000)-

Kredit 4030- Sug'urtalanuvchilardan olinadigan schyotlar"

Bunda sug'urtalovchiga o'tkazilayotgan mulkning asosiy vosita, material yoki arzon baholi tez eskiruvchi predmetlar sifatida hisobga olinishiga bog'liq bo'ladi. Mazkur provodkada sug'urta obektining summasi va unga yetkazilgan zarar o'rtasidagi farq sug'urta obektining haqiqiy qiymatini aks ettiradi.

6030 schyotning kredit saldosida sug'urtalovchining majburiyati va uning to'liq sug'urta summasini to'lashi aks ettiriladi.

Debet 6030 – "Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar"

Kredit 5010 (5110, 5210)-"Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Agar sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi to'liq to'lab berilgandan so'nggina mulkka bo'lgan huquqlarning sug'urtalovchi

foydasiga rasmiylashtirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, sug'urta qoplamasining to'lovi quyidagicha hisobga olinadi:

Debet 6030–“Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar”

Kredit 5010 (5110, 5210)–“Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar”

va ushbu schyotning debet saldosi sug'urtalanuvchining sug'urtalovchiga o'tkazib beradigan majburiyati hisoblanadi.

Xalqaro dengiz sug'urtasi amaliyotida shartnomalarning tuzilishida ba'zan sug'urtalovchining birinchi sug'urta qoplamasini to'lashi bilan o'z majburiyatidan voz kechishi belgilanishi mumkin. Bunda sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'liq amalga oshirishi mumkin. Ushbu holatlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi quyidagicha amalga oshiriladi.

Haqiqatda yetkazilgan zarar summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 6030 – “Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar”

Kredit 5010 (5110, 5210)- “Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

Sug'urta qoplamasining qolgan qismi sug'urtalovchining foydasi evaziga amalga oshiriladi:

Debet 8710 – “Taqsimlanmagan foyda”schyoti

Kredit 6030–“Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar”

va

Debet 6030 – “Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar”

Kredit 5010 (5110, 5210)- “Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar

2.5. Sug'urta tashkilotlarida sug'urta faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks etirish

Sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda barcha buxgalteriya hisobiga oid meyoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori asosida tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish

va reali-zatsiya qilish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom"ga va O'zbekiston Res-publikasi Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta za-xiralari to'g'risida Nizom"ga asosan amalga oshiradilar.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish uchun alohida daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar va alohida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar ishlatiladi. Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdagi qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va boshqa to'lovlar olinadigan schyotlar yoki pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida va byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarning (6400) kreditida aks ettiriladi.

Sug'urta tashkilotlarining daromadlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Sug'urta faoliyatidan daromadlar.
2. Sug'urta faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.
3. Sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatdan olinadigan daromadlar.

Sug'urta faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- sug'urta, birgalikda sug'urtalash va qayta sug'urta shartno-malari bo'yicha kelib tushadigan sug'urta mukofotlari;
- sug'urta zaxirasining qaytim summasi (sug'urta zaxirasining keyingi yilga o'tadigan qismi);
- qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha olingan komission mukofotlar, tantemalar va boshqalar;
- sug'urta agenti, sug'urta brokeri, syurveyer va avariya komissari xizmatlarini ko'rsatganlik uchun komission mukofotlar;
- qayta sug'urtaga berilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha qayta sug'urtalovchilar tomonidan zararning qoplangan qismi.

Sugʻurta faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- sugʻurta zaxiralarini joylashtirishdan olingan daromadlar;
- qayta sugʻurtaga qabul qilingan sugʻurta shartnomalari boʻyicha depozit mukofotlarga hisoblangan foiz daromadlari;
- sugʻurta hodisasining sodir boʻlishida aybdor hisoblangan shaxsdan zararni qoplashni talab qilish huquqidan foydalanish orqali olingan daromadlar.

Sugʻurta faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- asosiy vositalar, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;
- oʻtgan davrlarda hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzlarni qoplash uchun kelib tushgan summalar;
- hisobdan chiqarilgan kreditorlik qarzlari;
- qonunchilik bilan cheklanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromadlar.

Yuqorida keltirilgan daromadlarni hisobga olish tegishli schyotlardagi qoldiqlarning 9910 schyot “Yakuniy moliyaviy natija”ga oʻtkazish orqali amalga oshiriladi.

Sugʻurta tashkilotlarining xarajatlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilinadigan ajratmalar.
2. Qayta sugʻurtaga qabul qilingan sugʻurta shartnomalari boʻyicha toʻlangan sugʻurta qoplamalari.
3. Qayta sugʻurtalash operatsiyalari boʻyicha toʻlangan komission mukofotlar va tantemalar.
4. Ish yuritish xarajatlari:
 - sugʻurta tashkilotining xodimlariga toʻlanadigan mehnat haqi;

- sugʻurta agenti va brokeri xizmatlarini koʻrsatganlik uchun toʻlangan komission haqlar;
- sugʻurta agentlarining sugʻurtalanuvchilar joylashgan joylarga borish va qaytish xarajatlari;
- sugʻurta tashkilotining boshqaruv apparati xodimlarini saqlash, kompaniyaning boʻlinma, filiallarini saqlash ularning moddiy-texnik bazasini taʼminlash xarajatlari;
- sugʻurta faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq xizmatlarni koʻrsatgan boshqa tashkilotlarga toʻlanadigan haqlar;
- sugʻurta polislari blanklari, kvitansiyalari, ariza, mulkni koʻrikdan oʻtkazish, sugʻurta hodisasining yuz berganligi toʻgʻri-sida dalolatnomalar blanklarini tayyorlash xarajatlari va boshqalar;
- sugʻurta tashkilotining faoliyati bilan bogʻliq safar xarajat-larining barchasi;
- boshqa sugʻurta tashkilotlarining vakillarini qabul qilish va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq xarajatlar;
- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bogʻliq xa-rajatlar;
- reklama xarajatlari;
- axborot va konsultativ xizmatlarni toʻlash;
- yillik balans va moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotlarni matbuotda chop ettirish xarajatlari;
- asosiy vositalarning qayta tiklanishi uchun qilinadigan amortizatsiya ajratmalari;
- nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- majburiy sugʻurta boʻyicha qilinadigan xarajatlar;
- oʻz mol-mulkini ixtiyoriy sugʻurtalash bilan bogʻliq xarajatlar;
- banklardan olingan kreditlar boʻyicha foizlarni toʻlash xa-rajatlar;
- soliqlar, yigʻimlar va boshqa majburiy tartibdagi yigʻimlar va toʻlovlar;
- byudjetdan tashqari fondlarga majburiy ajratmalar.

Yuqorida keltirilgan barcha xarajatlar sug'urta xizmatining tannarxiga kiritilib, ularning summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 9910 – **“Yakuniy moliyaviy natija”**

Kredit 9130- **“Ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi”**

Lekin daromadni aniqlashda va daromad (foyda) solig'ini hisoblashda “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom”da nazarda tutilgan jihatlar hisobga olinadi.

5. Sug'urtalovchining sug'urta va moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sug'urta zaxiralarini investitsiya qilishdan olingan zararlar;
- qayta sug'urtalash mukofotlari bo'yicha kompaniya tomonidan hisoblangan foizlar;
- sud bilan bog'liq xarajatlar;
- undirib olish mumkin bo'lmagan debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish;
- avval vujudga kelgan qarzlardan voz kechish;
- moddiy qimmatliklarni sotish va yo'qotishdan olingan zararlar;
- tabiiy ofatlar va boshqa hodisalar oqibatida yetgan zararlar.

Mazkur xarajatlarning sug'urta xizmatining tannarxiga o'tkazilishi quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

Debet 9130 –**“Ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi”**

Kredit 9400- Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari moliyaviy natijalarini 2005-yil 18-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan “Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi Nizom”ga muvofiq shakllantiradilar.

Ushbu Nizomga muvofiq sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlashda barcha buxgalteriya hisobiga oid meyoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori asosida tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom"ga amal qiladilar, shu bilan birga, "Sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi Nizom"ning o'ziga xos jihatlarini hisobga oladilar.

Unga muvofiq sug'urta xizmatining tannarxiga quyidagi xarajatlar qo'shimcha ravishda qo'shilishi lozim:

- sug'urtalash (birgalikda sug'urtalash) shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta qoplamalari summasi;
- sug'urta hodisasi bo'yicha zararlarni bartaraf etish va sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;
- baxtsiz hodisalar, sug'urtalangan mulkning shikastlanishi yoki zararlanishining oldini olish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish zaxirasiga qilinadigan ajratmalar;
- qayta sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha hisoblangan ko-mission mukofotlar va tantemalar.

Mazkur Nizomga asosan sug'urta tashkilotining sug'urta xizmatlarini sotishdan tushgan sof tushumi quyidagi tartibda aniqlanadi:

- sug'urtalash va birgalikda sug'urtalash bo'yicha (birgalikda sug'urtalash shartnomasida belgilangan ulush doirasida), kelib tushgan mukofotlarning umumiy hajmidan qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha mukofotlar chegirilgan holda;
- plyus qayta sug'urtaga qabul qilingan sug'urta shartnomalari bo'yicha kelib tushgan mukofotlar;

– plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasining o‘zgarish natijasi (keyingi matnlarda RNP);

– plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining o‘zgarish natijasi;

– plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasining o‘zgarish natijasi;

– plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi hayot sug‘urtasi bo‘yicha zaxiraning o‘zgarish natijasi;

– plyus/minus qayta sug‘urtalovchining ulushi chegirilgan holdagi boshqa texnik zaxiralarning o‘zgarish natijasi;

– plyus sug‘urta agenti, brokeri, vositachisi xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun komission va boshqa hisoblangan mukofotlar;

– syurveyer, avariya komissari-adjaster xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun mukofotlar;

– bevosita sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

Sug‘urta tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijasining shakllanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun hisobot yilida 9910- “Yakuniy moliyaviy natija” schyotidan foydalaniladi. Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan va favqulodda daromadlardan ushbu faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar summasiga kamaytirilishidan yuzaga keladi. 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotining debetida sug‘urtalovchining xarajat (zarar)lar, kreditida esa daromad (foyda)lar aks ettiriladi. Hisobot davridagi debet va kredit aylanmasi taqqoslanishi hisobot davrining sof foydasi (zarari)ni ko‘rsatadi.

Har bir hisobot davri oxirida 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalar yig‘iladi va hisobot davrining

yakuniy moliyaviy natijasini ifodalovchi ushbu schyot bo'yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi.

Hisobot davrining tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzishda 9910-“Yakuniy moliyaviy natija” schyoti 8710-“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” schyoti bilan bog'langan holda yopiladi.

Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar (9900)ning bog'lanishi:

1. Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9030, 9060, 9070, 9080, 9090- Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 9910-“Yakuniy moliyaviy natija”

2.Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9910-“Yakuniy moliyaviy natija”

Kredit 9130- 9150-. Sotilgan tovarlar va xizmatlar tannarxini hisobga oluvchi schyotlar

3. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9310-9390- Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

4.Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

Kredit 9410-9440- Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar

5.Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9510-9590- Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar

Kredit 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

6. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

Kredit 9610-9690- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar

7. 9710 “Favquloddagi foydalar” schyotining yopilishi

Debet 9710- Favquloddagi foydalar

Kredit 9910- “Yakuniy moliyaviy natija”

8. 9720 “Favquloddagi zararlar” schyotining yopilishi

Debet 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

Kredit 9720--“Favquloddagi zararlar

9. Soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi

Debet 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

Kredit 9810, 9820- Soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar

10. Hisobot yilining sof foydasi

Debet 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

Kredit 8710--“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”;

11. Hisobot yilining sof zarari

Debet 8710--“Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)”;

Kredit 9910--“Yakuniy moliyaviy natija”

III-BOB. SUG‘URTA TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOBNI TASHKIL ETISHNING TAKOMILLASHTIRISH MASALARI

3.1. “Sug‘urta tashkilotlarda buxgalteriya hisobni tashkil etishning takomillashtirish

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarinish chuqurlashuvi investitsion dasturlarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish zaruriyati, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi har bir inson va tashkilotning manfaatlarini oldindan bilib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar oqibatida ko‘riladigan zararlardan saqlash hamda himoya qilish kafo-latlarini ta‘minlashni taqozo etadi. Sug‘urta faoliyati ana shunday himoyaning amaldagi mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, milliy sug‘urta bozorining to‘liq rivojlanmaganligi, ichki sug‘urta bozoriga xorijiy sug‘urtachilarni jalb qilish tizimining mavjud emasligi, shuningdek bunday sharoitlarda tavakkallarning o‘ziga xos xususiyatlari yuzaga kelishi tufayli turli tavakkallarni sug‘urta qilishning qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlanishi hamda ularni boshqarish uchun muayyan tizim belgilanishi talab qilinadi.

Xuddi ana shu maqsadlarda barcha sug‘urta tashkilotlarining aktivlari hisobidan o‘tkazilgan mablag‘lar evaziga maxsus investitsion sug‘urta fondlarini shakllantirish zarur bo‘ladi.

Bunday fond yirik investitsion loyihalarni, sanoat, transport, energetik va boshqa obyektlarni sug‘urta qilish chog‘ida sug‘urta tashkilotlari barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilib, sug‘urtalovchilar tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarish uchun kafolat vazifasini o‘taydi, zararlarni o‘z vaqtida qoplash, sug‘urta bozoridagi barqarorlikni ta‘minlash, sug‘urta infratuzilmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Investitsion sug‘urta fondi qayta sug‘urtalash kompaniyasini tashkil qilish uchun asos sifatida foydalanilishi, shuningdek horijda ana shunday tuzilmalarni shakllantirishda ishtirok etish uchun qo‘llanilishi yoki O‘zbekiston

iqtisodiyotiga xorijiy valyutani jalb qilishni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro qo'shma loyihalarda ishtirok etish uchun qo'llanilishi mumkin. Vaqtinchalik ushbu fondning erkin mablag'larini qimmatli qog'ozlarni, ko'chmas mulklarni sotib olishda va fondni inflyatsiyadan himoya qiluvchi boshqa operatsiyalarda foydalanish mumkin. Turli-tuman tashkiliy, huquqiy shaklga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi sug'urta sohasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha yagona uslubiy rahbarlik tizimini barpo qilishni taqazo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobi bo'yicha meyoriy hujjatlarda sug'urta sohasidagi buxgalteriya hisobi masalalariga alohida e'tibor berilmagan. Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi yangi schyotlar rejasini tayyorlash jarayonida ham sug'urta faoliyati bilan aloqador operatsiyalarni hisobga olishning xususiyatlari to'liq e'tiborga olinmagan.

Mazkur muammolar qanday hal etilishi kerak? Bir jihatdan olib qaraganda, sug'urta tashkiloti ham, barcha yuridik shaxs huquqiga ega tashkilotlar kabi o'z faoliyatini ta'minlash uchun muayyan mol-mulklarni, hisoblash mashinalarini, texnik uskunalarni sotib oladi yoki ijaraga oladi, debitorlar bilan, ishchilar, aksiyadorlar bilan, moliya va soliq idoralari va boshqalar bilan o'zaro hisob-kitob ishlarini yuritadi. Sug'urta tashkilotlarida mazkur operatsiyalarni hisobga olish ham xuddi boshqa turli mulk shakllariga asoslangan korxonalaridagidek amalga oshirilib kelinmoqda.

Sug'urta faoliyatiga aloqador operatsiyalarning buxgalteriya hisobi, xususan sug'urta mukofotlarining kelib tushishini, sug'urta to'lovlarini va sug'urta summalarini hisobga olish, maxsus sug'urta fondlarini va rezervlarini shakllantirish, shuningdek moliyaviy natijalarni shakllantirish o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib maxsus buxgalteriya hisobi schetlarini taqazo etadi. Qayta sug'urtalash bilan bog'liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobi mutlaqo o'ziga xos bo'lib boshqalardan keskin farq qiladi.

Sug'urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobotini shunday tashkil etish lozimki, toki sug'urta nazorati xizmati ular haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lsin. Hisobotga qo'yiladigan talablar birinchi galda sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini tahlil etishdan kelib chiqadi. Bunda balansdan tashqari sug'urta mukofotlari va to'lovlarining kelib tushishi, sug'urta to'lovlari va sug'urta turlari bo'yicha sug'urta summalarining to'lanishi haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lish zarurdir. Sug'urta kompaniyasining hisobotiga uning mablag'lari va rezervlarining harakati to'g'risidagi bo'limni, sug'urta fondlari va rezervlarini vaqtincha erkin mablag'larning investitsiya qilinishi haqidagi ma'lumotlarni va yana boshqa qator ko'rsatkichlarni kiritish lozim. Sug'urta kompaniyasi hisobotining shakli va mazmuni O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat sug'urta nazorati tomonidan boshqarilishi va xalqaro sug'urta kompaniyalari hisobotlari talablariga mos tarzda tuzilishi lozim. Hisobotlarda sug'urta kompaniyasi faoliyatining umumiy jihatlari bilan birga uning to'lov qobiliyatiga, zarur sug'urta rezervlarini ajratishiga, kapital mablag'larini to'plashdagi ishonchliligiga ham e'tiborni qaratmoq zarur. O'zbekistonning sug'urta bozorida tobora yangidan-yangi sug'urtalovchilar paydo bo'lmoqda, natijada sug'urta operatsiyalarining hajmi ham tez sur'atlar bilan o'sib bormokda. Shuning uchun ham, bizningcha, yaqin orada sug'urta kompaniyalari sug'urta nazorati idoralariga tez-tez ma'lumot berib turadigan bo'lishadi, ya'ni yilning har choragida ana shunday ma'lumotlarni nazorat idoralariga taqdim etish yo'lga qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining shakllanishidagi har bir bosqich o'ziga xos tajribalarni to'plashga imkoniyat yaratib, ularni umumlashtirish, har tomonlama tadqiq etish samarali ta'sir kuchiga ega bo'lgan sug'urta qonunchiligini yaratishga, sug'urta bozorini tashkil qiluvchi barcha tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmini ishlab chiqishga, mamlakatimizda sug'urta madaniyatining rivojlanishiga ko'maklashadi.

3.2. Sug'urta tashkilotlarida audit: o'ziga xos jihatlari, mavjud muammolari va ularning yechimlari

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asta sekin o'ta boshladi. Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashini va uning rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri infratuzilma shakllaridir. Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri sug'urta sohasi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urta sohasi iqtisodiyot rivojlanishining bir maromda borishini ta'minlovchi sohalardan biridir. Bundan tashqari, sug'urta iqtisodiyotning rivojlanishi uchun salmoqli investitsiya kapitalini jamlashtiruvchi va iqtisodiyotga kirituvchi strategik ahamiyatga ega bo'g'inlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni e'tiborga olgan holda, mamlakatimizda sug'urta sohasining rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. Sug'urta faoliyatining rivojlanishi hisob va auditning to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'likdir. Sug'urtachining moliyaviy tanazzuli ko'plab sug'urta qildiruvchilarning manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham sug'urta faoliyati hisobi va auditining asosiy e'tibori sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moliya-xo'jalik faoliyatining amaldagi qonunchilikka mos kelishi, shuningdek, faoliyatning moliyaviy hisob-kitoblarini to'g'ri olib borishga qaratilgan. Sug'urta tashkilotlari zamonaviy jamiyatning asosiy bo'g'inlari bo'lib, jamiyatda faoliyat kursatayotgan barcha yuridik hamda jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoligini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Sug'urta tashkilotlari jamiyatda ijtimoiy iqtisodiy holatni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Sug'urta tashkilotlarining barqaror rivojlanishiga esa auditorlik nazorat yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida» qonunining 10- moddasiga ko'ra sug'urta tashkilotlari har yili majburiy auditorlik tekshiruvdan o'tishi kerak.

Agarda sug'urta tashkilotlari belgilangan muddatlarda majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmasa yoki uni o'tkazishdan bo'yin tovlasa u xolda, O'zbekiston respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan o'z vaqtida choralar ko'rish va majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlagan xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy sanksiyalar belgilashni ta'minlash belgilangan.

Sug'urta tashkilotlarini auditdan o'tkazishda auditni to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida» qonunining 3- moddasi “Auditni rejalashtirish” va auditorlik faoliyati milliy standartlarining №3“Auditni rejalashtirish” talablariga ko'ra auditni rejalashtirish faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagicha rejalashtirilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:

3.1-jadval. Sug'urta tashkilotida auditorlik tekshiruvi o'tkazish namunaviy rejasi

Audit o'tkaziladigan tashkilot: “NAZORAT- AUDIT»MCHJ

Tekshiriladigan tashkilot: “UZAGROSUGURTA”AJ

Audit davri, kishi-soatlar miqdori: 704 kishi-soat

Auditorlik guruhining rahbari: Nazarov Baxodir Nematovich

Auditorlik guruhining tarkibi: I.K.Azizov, P.R.Karimov,

N.D.Imomnazarov

Rejalashtirilgan auditorlik riski 3, 8%

Rejalashtirilgan jiddiylik darajasi 3857899 sum

№	Rejalashtirilgan ishlar	o'tkazish davri (kun)	ma'sul (bajaruvchi)	eslatma
1.	Ta'sis xujjatlari mavjudligi, to'liq va o'z vaqtida ustav kapitali shakllantirilganligi, litsenziya mavjud- ligini auditdan o'tkazish	1	auditorlik tashkiloti xodimi	
2.	Buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va hisob siyosatini auditi	2	auditorlik tashkiloti xodimi	
3.	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar auditi	1	auditorlik	

			tashkiloti xodimi	
4.	Tovar moddiy zaxiralar auditi (№1000-Materallar hisobi)	1	auditorlik tashkiloti xodimi	
5	Moliyaviy qo'yilma mablag'lari auditi (№5800- kapital qo'yilmalar hisobi)	1	auditorlik tashkiloti xodimi	
6	Pul mablag'lar auditi (№5000- Kassa, №5100-Xisob-kitob hisobi №5500-bankdagi maxsus hisob)	2	auditorlik tashkiloti xodimi	
7	Xisob –kitoblar auditi (№6040-Sug'urtalanuvchilarga to'lanadigan schyotlar hisobi №6050-Sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan schyotlar hisobi №6060- Qayta sug'urta qilish bo'yicha olingan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar hisobi №, 6070- Qayta sug'urta qilishga berilgan risklar bo'yicha to'lanadigan schyotlar, № 6090 -Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirish, tantemalar va yig'imlar bo'yicha to'lanadigan schyotlar hisobi №6400-Byudjet bilan hisoblashuvlar hisobi №6500-Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar hisobi №6700-Mexnat va unga hak to'lash hisobi.	3	auditorlik tashkiloti xodimi	
8	Sug'urtalash, birgalikda sug'urtalash va kayta sug'urtalash shartnomalari va ularni amaldagi konunchilik talablari hamda sug'urtalash shartnomalarini rasmiylashtirish koidalariga javob berishini auditi	2	auditorlik tashkiloti xodimi	
9	Sug'urtalash, birgalikda sug'urtalash, kayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlari(qoplamalari)ni amaldagi qonunchilik muvofiq hisob –kitoblarni auditi	3	auditorlik tashkiloti xodimi	
10	Sug'urtalash va qayta sug'urtalash mukofotlari va qoplamalarini buxgalteriya hamda solik hisobida aks ettirilishini auditi (№2200 Sug'urtalash, birgalikda sug'urtalash va qayta sug'urtalash bo'yicha sug'urta qoplamalari hisobi №4030- Sug'urtalanuvchilardan olinadigan hisobi №4040-Sug'urta agentlari va brokerlaridan olinadigan hisobi	3	auditorlik tashkiloti xodimi	
11	Sug'urta zaxiralarini shakllanishi xisob-kitoblari va hisobotini auditi (№8000- 8090-Sug'urta zahiralar hisobi, №8110-Ishlab topilmagan mukofotlar zahirasiidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi hisobi	3	auditorlik tashkiloti xodimi	

	№8120- Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi hisobi №8130- Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi hisobi №8140- Hayot sug'urtasi bo'yicha zahiradagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi hisobi			
12	Umum ishlab chikarish xarajatlari auditi	1	auditorlik tashkiloti xodimi	
13	Boshka daromadlar auditi (№9070-Qayta sug'urta qilish va retrotsessiyaga berilgan risklar bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar hisobi, №9080-Qayta sug'urta qilishga oid komission rag'batlantirishlar, tantemalar va yig'implar bo'yicha daromadlar hisobi №9090- Syurveyer va adjaster xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar hisobi	1	auditorlik tashkiloti xodimi	
14	Boshka xarajatlar auditi	1	auditorlik tashkiloti xodimi	

Auditorlik tashkiloti nomidan

auditorlik xulosasini imzolash huquqiga ega rahbar imzo

Auditorlik guruhining rahbari imzo

O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati milliy standartining №3 "Auditni rejalashtirish" standarti talablariga ko'ra sug'urta tashkilotlarini auditdan o'tkazishni umumiy rejasi tuzilayotganda auditor quyidagilarni e'tibor olish kerak:

- A) auditdan o'tkazilayotgan yuridik shaxs faoliyati
- B) buxgalteriya xisobi va ichki nazorat tizimi
- V) tavakkalchilik
- G) faoliyat xarakteri va bajariladigan ish xajmiga
- D) bajariladigan ish yunalishiga, joriy nazoratiga va bajarilishini tekshirishga
- E) boshka aspektlarga

Audit rejalashtirilgandan so'ng, auditorlik tashkiloti xodimlari va tashqaridan jalb etilgan ekspertlar, ya'ni mutaxassislardan iborat ishchi guruh shakllantiriladi. [2]

Audit tekshiruvi o'tkazish jarayonida auditorlar va jalb etilgan mutaxassislar reja asosida maxsus standartda belgilangan shaklda xujjatlar rasmiylashtiradi xamda belgilangan muddatlarda o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha ishchi hisobotlar tuzadilar. Ish natijalari bo'yicha olingan axborotlar va auditorlik dalillari qog'oz va elektron shaklda tag'dim etiladi.

Tekshiruv natijalari tahlili quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

- mijoz tomondan qabul qilingan hisob siyosati umumiy xolati
- alohida bo'limlar bo'yicha va schetlarlarda hisobni to'g'ri yuritilishi
- soliq qonunchiligiga rioya etilishi
- mijozning moliyaviy holati
- auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va xulosasini rasmiylashtirish

O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati standartlarining №70- "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasi" va ichki xo'jalik standartini "Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha hisobotni shakllantirish" talablariga muvofik rasmiylashtiriladi. Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha hisobot ishchi xujjatlarda aks etiriladi, auditorlik dasturining har bir bo'limi bo'yicha auditorlarning xulosa va takliflari asosida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga ko'ra sug'urtalovchilar yil yakuni buyicha xisobot ma'lumotlari auditor tekshiruvidan o'tkazilib, ularning xaqqoniyligi auditor tomonidan tasdiqlanib va ushbu ma'lumotlari asosida sug'urtalavchilar faoliyatiga baho berish imkoniyati yaratilgandan so'ngina, buxgalteriya hisobotini e'lon qiladi.

Sug'urta tashkilotlarini auditdan o'tkazish jarayonida turli xo'jalik tarmoqlaridagi yuridik shaxslarga xos bo'lgan umumiy masalalarni tekshirish

bilan birga, faqat sug'urta tashkilotlariga xos bo'lgan maxsus operatsiyalar tekshiriladi.

Umumiy masalalarga asosiy fondlar, tovar-moddiy qiymatliklar va nomoddiy aktivlar bo'yicha operatsiyalarni tekshirish, shuningdek, mehnat qonunchiligiga rioya qilish va ish haqi bo'yicha xisob-kitoblar, xisob-to'lov va kassa operatsiyalari, debitor va kreditorlar bilan xisob-kitoblar hamda boshqa operatsiyalar kiradi.

Sug'urtachilarning ushbu operatsiyalari va hisob-kitoblarini nazorat qilish boshqa faoliyat sohalaridagi xo'jalik subyektlarini shunga o'xshash tekshiruvlaridan deyarli farq qilmaydi, chunki har ikki holatda ham tekshirishda bir xil meyoriy hujjatlarga asoslanadi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatini audit qilishning maxsus tomonlari sug'urta operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari (maxsus sug'urta qonunchiligi asosida), buxgalteriya xisobini yuritish, hisobotlar tuzish tartibi, moliyaviy natijalarni aniqlash va soliq to'lashdagi farqlari bilan belgilanadi

Sug'urtalanuvchilarni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, auditor tomonidan sug'urta tashkilotlarida qonun xujjutlariga muvofik buxgalteriya xisobini tashil etish tartibi, sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirish , sug'urta mukofotlarini hisobga olish hisob varaklari, sug'urta (rezervlar) zahira hisob-kitoblari hamda sug'urta koplamlari hisoblash va ularni hisob raqamlarda aks ettirish tartiblari tekshiriladi va bir vaqtni o'zida sug'urta operatsiyalarini masalalari urganilib, soliqqa tortish xam nazorat qilinib va xulosalar beriladi.

Sug'urta tashkilotlarining auditi ta'sis hujjatlarining mavjudligi va davlat ro'yxatiga olinganligi haqida guvohnoma bilan boshlanadi.

Auditor tekshiruv chog'ida barcha ta'sischilar qonunchilikka muvofiq o'z ulushlarini ustav kapitaliga o'z vaqtida va to'g'ri hamda to'liq qo'shganliklarini aniqlashi kerak

Ustav kapitaliga ta'sischilar tomonidan ulushlarni qo'shish muddatlariga rioya qilinishini va to'liqligini tekshirishda auditor quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

- ustav kapitalining to'liq shakllanganligi;
- ta'sischilar haqiqatda qo'shgan ulushlarining ta'sis hujjatlarida belgilangan shartlarga mosligi;
- ta'sischilar tomonidan ustav kapitaliga ulushlarni qo'shishda konunchilik va ta'sis hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya qilinishi.

Ustav kapitalining shakllanishini tekshirish chog'ida tekshirilayotgan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini ham e'tiborga olish zarur . Sug'urta tashkilotlari ustavga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida sug'urta nazorati organini xabardor qilishi shart. Agar bu amalga oshmagan bo'lsa, sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan hisoblanib, sug'urta qiluvchiga ko'zda tutilgan sanksiyalar qo'llanilishi mumkin. Auditorlar kompaniya rahbariyatiga sug'urta faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishning oqibatlarini haqida ogohlantirishlari kerak.

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan keskin farq qiladi. Shu sababli ularning faoliyati litsenziyalanadi. Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Sug'urta faoliyati faqat maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan taqdirda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan faoliyatlardan biridir. Shuning uchun, audit jarayonida litsenziya bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor beriladi.

Litsenziya vaqtinchalik bo'lsa, unda uning amal qilish muddati aniqlanadi. Bu holatda auditor auditorlik davrida litsenziyaning amal qilish muddati tugamaganligini tekshirishi kerak.

Auditda sug'urta shartnomalarining mazmunini va ro'yxatga olinishini tekshirish muxim o'rin tutadi. Bunday hollarda tuzilgan shartnomalarning

amaldagi qonunchilik talablariga, sug'urta qonunlari va sug'urta qoidalariga muvofiqligi aniqlanadi.

Avvalo, sug'urta shartnomalarining nomlari va litsenziyadagi ilovada keltirilgan sug'urta turlarga muvofiq kelishi kerak. Agar shartnomaning nomi, sug'urta turlaridan birortasiga to'g'ri kelmasa, u holda auditor bu sug'urta kompaniyasi sug'urta qonunchiligini buzganligini ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, ma'lum bir shartnomada ko'zda tutilgan sug'urta shartlarini sug'urta nazorati organi tomonidan tasdiqlangan sug'urta qoidalar bilan solishtirish kerak. Agarda, litsenziyalangan qoidalar va tariflar chegarasidan tashqarida tuzilgan sug'urta shartnomasi mavjud bo'lsa, u auditor tomonidan haqiqiy emas deb topiladi.

Sug'urta tashkilotlari o'z amaliyotida odatda standart shartnomalardan foydalaniladi, ya'ni, shartnomaning matni oldindan tayyorlangan va ma'lum shartlarni belgilash uchun bo'sh joy qoldirilgan bo'ladi. Biroq, tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda shartnomalarda ushbu bo'sh joylarning ba'zilar to'ldirilmaydi yoki chiziqli qo'yiladi. Ushbu beparvolik shartnomani imzolanmagan deb e'tirof etishga olib kelishi mumkin, chunki bu holda bitimning muhim sharti to'g'risida kelishuvga erishilmaydi. Odatda sug'urta shartnomasini tuzish uchun asos - kelgusida sug'urta qildiruvchining yozma arizasidir. Shuning uchun, auditni keyingi bosqichida sug'urtalangan shaxsning sug'urta shartnomasini tuzish asosini ifodalovchi hujjat yoki boshqa hujjat mavjudligini tekshirilishi zarur.

Sug'urta summasining miqdorini aniqlashning to'g'riligini tekshirishda sug'urta qiymati sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida mol-mulkning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligiga e'tibor qaratiladi.

Sug'urta mukofotlarini hisoblashning to'g'riligini nazorat qilish sug'urta summasi tarif stavkasi miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu tarifdan foydalanish shaklini hisobga olgan holda qonuniyligini e'tiborga olish muhimdir. Shuningdek, sug'urta qilingan mol-mulk,

sug'urtalangan shaxsning faoliyat turi va sug'urta tariflarini taqsimlovchi boshqa bir qator omillar ham ko'rib chiqiladi.

Sug'urta mukofoti miqdorini aniqlagandan so'ng sug'urta qildiruvchiga ularni to'lashi kerak bo'lgan muddat beriladi.

Qonun hujjatlari sug'urtachilar aholi xoxlagan shakllarda hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin, deb belgilangan.

Shaxsiy sug'urta shartnomalarini tuzishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bunda, o'z foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi (benefitsiar) tuzgan shaxs muhimdir. Ushbu shaxs sug'urtalanmagan bo'lsa, u holda sug'urtalovchining yozma roziligi bilan shartnoma tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmasa, shartnoma bekor bo'lishi mumkin.

Bizda hali qayta sug'urtalash yetarli darajada o'rganilmaganligi sababli, bu ko'pgina mahalliy sug'urta kompaniyalari uchun murakkabdir. Shuning uchun audit davomida qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirishning to'g'riligini o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ushbu faoliyatni nazorat qilish shakllari asosan qayta sug'urtalash bo'yicha tavakkalchiliklarni o'rganish usuli bilan aniqlanadi. Eslatib o'tamiz, bunday transfer bir martalik, epizodik yoki uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlar asosida bo'lishi mumkin.

Majburiy qayta sug'urtalash qayta sug'urtalash shartnomasi bilan tartibga solinadi - tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan va ularning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydigan yuridik hujjatdir. Ushbu bitim taraflar o'rtasidagi nizolarni hal qilish yoki hakamlik muhokamasida asosiy hujjat hisoblanadi.

Sug'urtalovchining sug'urta zaxiralarini joylashtirishga qo'yiladigan talablarni bajarmasligi unga nisbatan sanksiyalarni qo'lovchi nazorat organlari uchun asos bo'ladi.

Sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi sug'urta tashkilotining faoliyatining uzluksizligini ta'minlash va uning rivojlanishini ta'minlaydigan

aktivlar va majburiyatlarning maqbul sifatli va miqdoriy holatini saqlab qolishdan iborat. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi asosan to'langan ustav kapitalining, sug'urta zaxiralari, qayta sug'urtalash tizimining mavjudligi, shuningdek, sug'urta operatsiyalarining o'sishi va optimal tarif stavkalarini qo'llash hisoblanadi. Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligining asosiy belgisi ularning to'lov qobiliyati hisoblanadi.

Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini nazorat qilishda alohida xavf uchun maksimal javobgarlik talablariga rioya qilish hamda aktivlar va majburiyatlarning tartibga nisbati tekshiriladi.

Sug'urta kompaniyasining auditdan o'tkazish davomida milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari uchun umumiy masalalar va muayyan operatsiyalar tekshiriladi. Sug'urtalovchining xarajatlarining asosiy qismi sug'urta qoplamalari hisoblanadi, shuning uchun bu to'lovlarning haqiqiylikini tekshirishga katta e'tibor qaratiladi. Auditor topshirilgan arizalar, sug'urta shartlari, sug'urta qoplamasining o'z vaqtida to'lanishi va boshqalarni tekshiradi.

Sug'urtalovchilar o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarida alohida mablag'lar, zahiralar tashkil etganligi sababli, tekshirish vaqtida ushbu sug'urta zaxiralarini joylashtirish uchun shart-sharoitlar bajarilayotganligi ma'lum bo'ladi. Sug'urta zaxiralarini to'g'ri hisoblash sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu sug'urta zaxiralarining qayerda va qay tarzda ishlatilishini, shuningdek, ular sug'urta to'lovlari va korxona moliyaviy barqarorligiga kafolat bera oladimi-yoki yo'qmi tekshiriladi.

Sug'urta tashkilotlarini auditdan o'tkazilgan vaqtda majburiyatlarning auditini amalga oshirish zarur, chunki tekshiruvning aynan ushbu sohasi sug'urta tashkilotlarining tekshiruvining majburiy elementi hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarini majburiyatlarni auditdan o'tkazishda majburiyatlar auditining dasturini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmog'i

kerak. Bizningcha, majburiyatlar auditining dasturini quydagi yo‘nalishlarda ishlab chiqish maqsadga muvoffiq:

1. Sug‘urta majburiyatlarining buxgalteriya hisobi tizimini va ichki nazorat tizimini samaradorligini baxolash .

2. Sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirishda fuqarolik va maxsus qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish.

3. Sug‘urtalovchining buxgalteriya hisobida sug‘urta majburiyatlarini to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish.

4. Sug‘urta majburiyatlari qismida buxgalteriya hisobini ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri shakllantirilishini tekshirish.

Shuningdek, sug‘urta majburiyatlarini auditida analitik jarayonlarni amalga oshirishga muhim ahamiyat beriladi. Ularni to‘rt bosqichda o‘tkazish maqsadga muvoffiq:

1. Sug‘urta tashkilotining faoliyatini umumiy baholash.

2. Xisobotda berilgan ma’lumotlarni va sug‘urta majburiyatlari xajmi hisobini muvoffiqlikligini tekshirish.

3. Sug‘urta majburiyatlarini hajmini dinamikasini taxlili.

4. Sug‘urta majburiyatlarini audit dasturini tayyorlash.

Bunda, sug‘urta to‘lovlarini auditi jarayonida o‘tkaziladigan analitik choralar ichiga sug‘urta to‘lovlarining tarkibini tanqidiy tahlilini, sug‘urta to‘lovlarini rejadagi ko‘rsatkichlarini xaqiqiysidan sug‘urta turlari kesimida va to‘la sug‘urta portfeli bo‘yicha og‘ishini baholash, sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligini analitik ko‘rsatkichlarini hisobi kiritilmogi kerak.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, sug‘urta tashkilotlarini auditdan o‘tkazilishi sug‘urta kompaniyalari faoliyatining ishonchligini ta’minlab, jamiyatimizni rivojlanishiga o‘z xissasini qo‘shib, uning barqarorligini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot ishini yozish davomida shunday xulosaga keldikki , bugungi kunda respublikamizda bozor munosabatlarinish chuqurlashuvi investitsion dasturlarga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish zaruriyati, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi har bir inson va tashkilotning manfaatlarini oldindan bilib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar oqibatida ko‘riladigan zararlardan saqlash hamda himoya qilish kafolatlarini ta’minlashni taqozo etamoqda.

Sug‘urta faoliyati ana shunday himoyaning amaldagi mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, milliy sug‘urta bozorining to‘liq rivojlanmaganligi, ichki sug‘urta bozoriga xorijiy sug‘urtachilarni jalb qilish tizimining mavjud emasligi, shuningdek bunday sharoitlarda tavakkallarning o‘ziga xos xususiyatlari yuzaga kelishi tufayli turli tavakkallarni sug‘urta qilishning qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlanishi hamda ularni boshqarish uchun muayyan tizim belgilanishi talab qilinadi.

Xuddi ana shu maqsadlarda barcha sug‘urta tashkilotlarining aktivlari hisobidan o‘tkazilgan mablag‘lar evaziga maxsus investitsion sug‘urta fondlarini shakllantirish zarur bo‘ladi.

Sug‘urta faoliyatiga aloqador operatsiyalarning buxgalteriya hisobi, xususan sug‘urta mukofotlarining kelib tushishini, sug‘urta to‘lovlarini va sug‘urta summalarini hisobga olish, maxsus sug‘urta fondlarini va rezervlarini shakllantirish, shuningdek moliyaviy natijalarni shakllantirish o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib maxsus buxgalteriya hisobi schetlarini taqazo etadi. Qayta sug‘urtalash bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobi mutlaqo o‘ziga xos bo‘lib boshqalardan keskin farq qiladi. Sug‘urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobotini shunday tashkil etish lozimki, toki sug‘urta nazorati xizmati ular haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lsin.

Yuqoridagilarni e’tiborgaolgan xolda, tadqiqot ishni bajarish jarayonida quyidagi xulosalar olindi va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hamda uni yuritishga oid qonun va normativ hujjatlarning buzilishi yoki unga rioya etilmasligi, sug'urta kompaniyalari faoliyatida salbiy tahsir ko'rsatishi mumkin shuning uchun xujjatlarning buzilishi holatlari bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish zarur

2 Hisob va hisobot ishlarining qaydarajada tashkil etilganligi hamda jamiyatning yillik faoliyatini tahlil etish va unga baho berishda buxgalteriya xisobi mahlumotlaridan samarali foydalanish.

3.Boshqaruv tizimida texnik vositalari samarali foydalanish, xarajatlarning asossiz ravishda ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

4. Hisobotlarda sug'urta kompaniyasi faoliyatining umumiy jihatlari bilan birga uning to'lov qobiliyatiga, zarur sug'urta rezervlarini ajratishiga, kapital mablag'larini to'plashdagi ishonchliligiga ham e'tiborni qaratmoq zarur.

5. Sug'urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobotini shunday tashkil etish lozimki, toki sug'urta nazorati xizmati ular haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lsin.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holad quyidagilarni taklif qilaman:

- sug'urta kompaniyalarida debitorlik qarzlarini kamaytirish maqsadida shartnomaviy munosabatlarini yanada kuchaytirish;

- debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisobni tashkil qilishni yanada yaxshilash uchun buxgalteriya hisobining avtomatlashgan shakli bo'lgan buxgalteriya hisobi dastur BEM (Buxgalterga elektron madad)dan keng foydalanish lozim;

- Sug'urta kompaniyasida xarajatlarni kamaytirish, jumladan davr xarajatlarini kamaytirish lozim;

- Sug'urta kompaniyaning sug'urta badallari hisobidan kelib tushgan va bo'sh turgan mablag'larni iqtisodiyotning foydali sohalariga investitsiya sifatida sarflash.

Yuqorida tahkidlanganlar bo'yicha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy izlanishlar natijasida bildirilgan taklif va tavsiyalar sug'urta

kompaniyalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezident farmonlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2021 y.
<https://lex.uz/docs/-20596>
2. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. 2016 yil 14 aprel. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
3. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. //2021-yil 23-noyabr. <https://lex.uz/docs/5739117>
4. Mahsulot (ish, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllanish tartibi to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-264422>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF – 4947-sonli farmoni. // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral. <https://lex.uz/docs/-3107036>

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning asarlari.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 8-b.
7. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b
8. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxdil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
9. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.

10. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt tarakkiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining me'yoriy huquqiy hujjatlari.

11. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. №0-23. T.: - 1998-2018 yil.

IV. Darsliklar.

12. П.Я.Поповская. "Бухгалтерский учет" Учебник Минск издательство Рипо 2019 г.375с

13. К.Б.Ўрозов., М.Э.Пўлатов. Бухгалтерия ҳисоби Дарслик-Т. «Инновацион ривожланиш нашрёт матбаа уйи», 2020. — 558 с.

14. A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov. Buxgalteriya hisobi: Darslik / - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.

15. R.D.Dusmuratov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik –T.: ««Yangiyul polygraph service» nashriyoti, 2020, 495 bet.

16. A.A. Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov Moliyaviy hisob va hisobot. Toshkent "Iqtisod-Moliya"2019

V. O'quv qullanma va maqolalar

17. Abdullaev Z.S.va boshqalar. (2007). Iqtisodiyotda axborot texnologiyalar. T.: TIMI, 242 bet.

18. Кузминов Н.Н. (2000). Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях, М.: Изд. Второе Анкил.

19. Ochilov I., Sultonov D. (2010). Sug'urta hisobi va hisoboti. T.: *Iqtisod va moliya*.

20. Po'latov A. va boshqalar (2007). Boshqaruv hisobi. T.: TIMI.

21. Xasanov B. (2005). Boshqaruv hisobi. T.: TIMI.

22. Муминова, Э. А., Кундузова, К. И., & Умаралиев, З. Б. (2018). Модернизации экономики и инновационного развития узбекистана.

In *Научно-Технический Прогресс: Социальные, Технические И Общественные Факторы* (pp. 194-198).

23. Ёрматов, И. Т. (2017). Актуальные проблемы повышения инновационного потенциала Узбекистана. *Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук*, 11(5), 70-73.

24. Жумакулов, З. И., & Кундузова, Қ. И. (2020). Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва озиқовқат хавфсизлигини таъминлаш. In *Минтақа Иқтисодиётини Инвестициялашнинг Молиявий-Ҳуқуқий Ва Инновацион Жиҳатлари* (pp. 604-608).

25. Максудов, М. А., Ёрматов, И. Т., & Максудов, Ж. А. (2019). К вопросам эффективного использования финансовых ресурсов на предприятии. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (6-2), 57-61.

26. Кундузова, К. И. (2020). Основные условия, влияющие на рациональное размещение сельскохозяйственных культур в рыночных отношениях. *Евразийский союз ученых*, (2-5 (71)), 40-42.

27. Ёрматов, И. Т. (2018). Некоторые проблемы модернизации промышленных предприятий. In *научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные факторы* (pp. 133-137).

28. Kunduzova, K. I. (2021). The Content of Taxes and Their Importance in Society. *International Journal on Orange Technologies*, 3(9), 117-119.

29. Кундузова, К. И., & Темиркулов, А. (2019). Организация контроля материальных затрат на предприятиях химической чистки. In *Бухгалтерский Учет: Достижения И Научные Перспективы Ххi Века* (pp. 150-153).

30. Исманов, И. Н., Хожаев, А. С., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Вопросы совершенствования бухгалтерского учёта нематериальных активов. *Проблемы современной науки и образования*, (6 (139)), 79-81.

31. Кундузова, К. И., & Ахунова, Ш. Н. (2019). Пути развития дехканских хозяйств и повышения их эффективности. *Известия Ошского технологического университета*, (3), 273-277.

32. Хакимова, Ш. А., Хабижонов, С. К., & Хожаев, А. С. (2018). Статистический прогноз показателей производства овощей и фруктов, выращенных фермерами Ферганской области. *Бюллетень науки и практики*, 4(10), 212-218.

33. Кундузова, К. И. (2022). Совершенствовании государственного финансового контроля. *Zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish tuammolarining innovatsion yechimlari*, 88-91.

34. Ibragimovna, K. K. (2021). Accounting of tax benefits. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(5), 26-29.

35. Кундузова, К. И. (2019). Совершенствование кредитного портфеля коммерческих банков. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 43-45.

36. Курпаяниди, К. И., & Кундузова, К. И. (2013). Совершенствования системы налогообложения субъектов предпринимательства в условиях институциональной трансформации. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (6), 129-131.

37. Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In *E Conference Zone* (pp. 92-95).

38. Хожаев, А. С. (2017). Вопросы совершенствования использования статистических исследований при сборе информации в сфере плодоводства-овощеводства. *Theoretical & Applied Science*, (9), 8-13.

39. Кундузова, К. И., & Хабижонов, С. К. У. (2018). Содержание и сущность Концепции усовершенствования налоговой политики Республики Узбекистан. *Достижения науки и образования*, (19 (41)), 28-31.

40. Тошмаматов, Н., Хожаев, А. С., & Тошмаматов, С. Н. (2016). Бухгалтерия ҳисоби" фанининг предмети ва методи усулларига назарий ёндошув. *Молия ва банк иши электрон илмий журнали*, (4), 40.
41. Кундузова, К. И., & Хабижонов, С. К. У. (2018). Аудит в страховых организациях: особенности и проблемы. *Economics*, (6 (38)), 42-48.
42. Темиркулов, А. А., & Хожаев, А. С. (2021). Статистический анализ и оценка деятельности специализирующихся на плодоовощеводстве фермерских хозяйств в ферганской области. In *Бухгалтерский учет: достижения и научные перспективы XXI века* (pp. 197-204).
43. Кундузова, К. И. (2022, June). Проблемы налогообложение страховые компании. In *E Conference Zone* (pp. 8-15).
44. Ibragimovna, K. K. (2022). The system of indicators of the economic efficiency of land use in the context of the activities of agricultural enterprises of various forms of management Kunduzova Kumrikhon. *World Economics and Finance Bulletin*, 11, 33-37.
45. Kumrikhon, K., & Azizhon, K. (2021). Issues of Improving the Audit of Insurance Organizations. *Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance*, 2(11), 25-30.
46. Хожаев, А. С. (2019). *Экономико-статистический анализ деятельности фермерских хозяйств, специализированных в плодовоовощеводстве (на примере Ферганской области)* (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам. Ташкент).
47. Azizkhon, K. (2017). The peculiarities of statistical analysis on fruit and vegetable farming (Fergana region is as an example). *Бюллетень науки и практики*, (8 (21)), 188-193.

48. Исманов, И. Н., & Хабижонов, С. К. У. (2019). Вопросы совершенствования бухгалтерского учета долгосрочных активов. *Вестник науки и образования*, (10-4 (64)), 41-45.

VI. Internet saytlari.

49. www.buhgalteriY.com.ua

50. www.referat.uz

51. www.glavbukh.ru

52. www.saldo.ru

53. www.ziyonet.uz

QAYD UCHUN

QAYD UCHUN

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

**KUNDUZOVA KUMRIXON IBRAGIMOVNA,
XOJAYEV AZIZXON SAIDALOXONOVICH**

**SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA
BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI
TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI
(MONOGRAFIYA)**

**Kunduzova Kumrikan Ibragimovna ,Khojaev Azizkhon
Saidalokhonovich**

**“Issues of improving the organization of accounting and
auditing in insurance organizations” (monograph). Fergana-
USA: Global Book Publishing Services (GBPS) USA, 2022, 108 p**



**G
B
P
S**

**Global Book Publishing Services
1211 Polk St, Orlando, FL 32805, USA
Email:- info@scientificpublication.org**

